

Ma'rifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 17-iyun chorshanba №24(9609)



“Aldoqchi so‘zlar”ga aldanmang!

10-11 – betlar

GENDER TENGLIK: JAMIYAT TARAQQIYOTI SARI MUVOZANATLI QADAM

Gender tenglik aslida jamiyatga yuk bo‘ladigan masala emas, aksincha, uning salohiyatini to‘la ochib beradigan imkoniyatdir. Ayolning ilm-fan, iqtisod, siyosat va madaniyatda faol ishtiroki jamiyatning katta yutug‘i hisoblanadi. Erkakning ham o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishi, oilaviy mas‘uliyatni teng baham ko‘rishi – bu yuksak insoniy qadriyat. Gender tenglik borasida dunyo miqyosida boshlangan ijobiy harakatlarda har bir fuqaroning ishtiroki, ongli yondashuvi, birdamlikdagi harakati muhim.

6 -bet


ChatGPTga qaram avlod

Ta’lim tizimining asosiy vazifasi faqat bilim berish emas, balki fikrlovchi, savol beruvchi, bahslasha oladigan, ijodkor shaxsni tarbiyalashdir. Agar sun’iy intellekt ta’limda faqat qulaylik va tezkorlik nuqtayi nazaridan joriy etilsa, u rivoj emas, balki intellektual inqirozga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimi oldida muhim vazifa turibdi: sun’iy intellektni o‘quvchining o‘rniga fikrlovchi vosita sifatida emas, balki fikrlashni rivojlantiruvchi instrument sifatida qo‘llash...

3 -bet

Kim bepul ta’lim olishni istamaydi?

2 -bet





SHUKRONALIK

Erta tong.

Ajib bir tuyg‘u – yana uyg‘onmoqlik. Tashqarida esa insonga xush yoqadigan yoqimli shamol va toza havo. Go‘yoki tabiatning o‘zi sizni uyg‘otadi, hayot sari chorlaydi. Umr o‘tar ekan, inson qalbida savollar tug‘iladi: “Men bu dunyoga nima uchun keldim? Yaratilishimning sababi nima?” Albat, bu savollarga javobni ilgariroq topgan odamlar ham bor.

Onamning doimo takrorlaydigan bir gapi yodimdan hech ko‘tarilmaydi: “Ilming yuqsin, bolam”. Dastlab bu so‘zlarni anglamasdim, lekin vaqt o‘tgan sari har bir harfi qanday katta ma‘nolarni o‘z ichiga olganini his qila boshladim. Ilm – insonni ulug‘ qiladigan eng yuksak qadriyatdir.

Toshkentda joylashgan O‘zbekiston Milliy kutubxonasiga kelganimda, bu so‘zlarning hayotdagi isboti bilan

yana bir bor yuzma-yuz keldim. Kutubxona ichidagi sukunat – minglab tafakkur va orzular bilan to‘la bir olam edi. Har bir burchagida ilmga tashna qalblar. Kitobxonlarning asosiy qismini o‘quvchi va talabalar tashkil etsa-da, eng hayratlantirgan holat – taxminan yetmish yoshlar atrofidagi otaxonlarning ham kitob mutolaasiga oshno bo‘lib kelganidir.

Demak, yosh-u qarining bir mas-kanda jam bo‘lishi – ilmga bo‘lgan iz-zat va ehtiromning eng yorqin ko‘rin-ishidir.

Faxrim – turbatlikligim

Har bir insonning qalbida tug‘ilib o‘sgan yurti, bolalik xotiralari o‘chmas iz qoldiradi. Men uchun bu yer – Qozog‘istonning Turkiston viloyatidagi Turbat qishlog‘i. Bundan bir necha yil avval Feruza xolam “Men baralla ayta olaman – turbatlikman. Turbatlik

ekanligimdan faxrlanaman” deganida “Qozog‘istonning chekka bir joyi-ku, kim ham bilar ekan bu yerlarni?”, deya xayolimdan o‘tkazdim.

Ammo yillar o‘tib, hayot bu fikrimni butunlay o‘zgartirdi.

Toshkentga o‘qishga borganimda, tanishtiruv darslaridan birida domlam-iz 80 nafar talaba orasida mendan ham so‘radi:

– Siz qayerdansiz?

– Qozog‘iston, Turkiston viloyati, Turbat qishlog‘idanman, – dedim.

Domla hayrat bilan jilmayib:

– Turbatlikmisiz? – dedi.

Ichimda bir savol tug‘ildi: “Qayerdan bilarkan?”

“Ha” deb javob berdim. Domla davom etdi:

– Milliy universitetda turbatlik tanishlarim bor.

O‘sha daqiqada qalbimda ilk bor faxr tuyg‘usi uyg‘ondi. Bir kun kelib, Turbat deganda meni ham eslashsin.

Keyinchalik, o‘qishim davomida O‘zbekiston Milliy axborot agentligiga amaliyot o‘tashga bordim. U yerda yoshi 60 lar atrofidagi, ochiq chehra, mehribon inson meni kutib oldi. Nega kelganimni, qanday yo‘nalishda ishlashga qiziqishim borligini so‘radi. Men izchil javob bera boshladim.

So‘ng, qo‘limdagi pasportimga ko‘zlari tushdi:

– Qayerliksiz?

– Qozog‘istondanman.

– To‘liq ayting-chi, qaysi viloyat, qaysi qishloqdan? – dedi.

– Turkiston viloyati, Turbat qishlog‘idanman, – dedim.



Mashhur jurnalist va siyosiy
sharhlovchi Sharofiddin To‘laganov
ham asli turbatlik.

U hayrat bilan bosh silkidi:

– Voy, siz o‘sha yerlik ekansiz-da!

Bizda ishlagan, o‘zbek jurnalistikasi tarixida iz qoldirgan, nutqi ravon, qalami o‘tkir Mahammadjon Rahmatov ham turbatlik edi, – dedi.

O‘sha damda yana yuragimda faxr jo‘sh urdi. Bu yurt, mening yurt-doshlarim orasidan ham tarixda nomi qolganlar borligini eshitish – baxt, g‘urur.

Aslida, Turbat nafaqat tabiati va tarixi bilan, balki uning nomini ko‘klarga ko‘targan shoirlari – Turob To‘la, Bahodir Sobit singari ijodkorlari bilan mashhurdir. Ularning lirik so‘zlari, yurakdan chiqqan she‘rlari Turbatning ruhini, xalqining jasorati va mehrini tanitayapti.

Har bir inson qayerda bo‘lmasin, asl ildizini eslab yashasa, doimo kuchli bo‘ladi. Bugun men ham g‘urur bilan ayta olaman: men turbatlikman.

Nodirabegim TOSHEVA,
O‘zJOKU talabasi



Muammo

Kim bepul ta‘lim olishni istamaydi?



Universitet faqat auditoriya va darslardan iborat emas. U ba‘zan katta bir o‘rmonni eslatadi. Bu o‘rmonda har bir talaba o‘z o‘rnini topish uchun kurashadi. Ozuqasi “grant” bo‘lgan joyda yo‘l xaritasi “reyting” hisoblanadi.

Hamma ham o‘rtaga tashlangan luqmadan oziqlana olmasligi bor gap, ammo bu yerda shaffoflik qay darajada ketyapti, degan savol barcha talabalarni qiziqtiradi. O‘zi umuman bu o‘rmonda yo‘llar hamisha ko‘rinib turadimi?

O‘zbekistondagi ko‘plab universitetlarda talabalar uchun davlat granti nafaqat universitetga kirishda, balki keyingi kurslarda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har yili talabalarning o‘qish natijalariga qarab grant qayta taqsimlanmoqda. Bu jarayon O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan mezonlar asosida amalga oshirilishi kerak: GPA, fanlardan baholar, intizom, ijtimoiy faollik. Rasman barchasi aniq! Amalda-chi?

So‘nggi yillarda ayrim universitetlarda talabalar reytingi ochiq e‘lon qilinishi amaliyoti joriy etilmoqda.

Bu esa o‘rmondagi yo‘llar ochilishidan dalolat berib, har bir talaba o‘z o‘rni, o‘z natijasini ko‘ra olishini anglatadi. Bu albatta muhim qadam. Chunki ochiq-landirish maydigan reyting sababli talabalar o‘rtasida nizolar kelib chiqishi mumkin.

Grant uchun ham hamma ariza topshirish imkoniga ega emas. Gap shundaki, talabalar ariza topshirishda 3 xil grantdan birini tanlashlari kerak bo‘ladi:

➤ to‘liq va to‘liq bo‘lmagan grant uchun GPA – 3.5 dan baland bo‘lishi;

➤ qo‘shimcha davlat granti – faqat ijtimoiy hi-moya reyestrda “qizil” va “sariq” toifadagi oila a‘zolari uchun GPA – 4 dan baland;

➤ oliy ta‘lim granti – GPA 3.3 dan 4 gacha.

Shuningdek, imtiyozli yoki maqsadli grantga kir-ganlar, sirtqi, masofaviy, kechki shaklda o‘qiydiganlar ariza yubora olmaydi. Grant uchun baholash mezon-i 100 ballni tashkil etadi va 2 guruhga bo‘linadi:

✓ akademik o‘zlashtirish – 80 ball;

✓ ijtimoiy faollik – 20 ball.

Masalan:

- akademik o‘zlashtirish – 82 ball;
- kitobxonlik madaniyati – 4 ball;

- “5 muhim tashabbus” doirasidagi faoliyat – 4 ball;
- Tanlov va olimpiadalar – 2 ball;
- Ma‘rifat darslari – 2 ball;
- intizom – 1 ball;
- davomat – 1 ball;
- volontyorlik – 1 ball;
- madaniy tashriflar – 1 ball;
- sport – 1 ball;
- boshqa faolliklar – 1 ball.

Ammo hamma joyda ham tizim birday ishlarmikan? Bu yerda tyutorlarning o‘rni ham juda muhim. Ayrim talabalar ijtimoiy faollik bahosidan norozi bo‘lib, tyu-torlardan shikoyat qilmoqda.

Ochiq reyting – bu faqat ro‘yxat emas, bu aniqlik va ishonch masalasidir. Hisob-kitoblar tizim orqali amalga oshiriladi, demak raqamlar va algoritmlar bor.

Grant uchun astoydil harakat qilayotganlar ko‘p, biroq kontraktga tushib, ota-onasiga og‘irlik qilishni istamaydiganlar ham yetarli. Ba‘zi tyutorlar tomonidan “Hammasi mening qo‘limda!” degan gaplar aytilayot-gani ham talabalarda shubha uyg‘otmoqda. Bir marta tadbirida qatnasha olmaslik doimiy kamchilik sifatida ko‘rsatilishi, ayrim hollarda esa norasmiy munosa-batlar ustun qo‘yilayotgani haqidagi gaplar ham yo‘q emas. Kim bepul ta‘lim olishni istamaydi? Ammo buning uchun qilinayotgan mehnat har doim ham adolatli baholanyaptimi?

Yaqin oylarda yana grant taqsimoti jarayoni kutil-moqda. Bu esa ko‘pchilik uchun sinov.

Savol esa ochiq qolmoqda:

– Bu jarayonda haqiqatan ham qonunlar ustuvor bo‘ladimi yoki yana o‘sha “qo‘shirnoq ichidagi” omil-lar ishlaydimi?

Muxlisa ABRAYQULOVA,
O‘zJOKU talabasi

Siz nima deysiz?



Raqamli dunyoga ilk qadam

Sun'iy intellektning jadal rivojlanishi bugungi raqamli transformatsiya sharoitida insoniyat hayotida misli ko'ril-magan inqilobni yuzaga keltirdi. Chunki sun'iy intellekt nafaqat texnik sohalarga, balki ta'lim tizimi, tibbiyot, bank-moliya sektori, ommaviy axborot vositalari va hatto kundalik hayotimizning eng oddiy jabhalarigacha chuqur kirib bordi. Raqamli transformatsiya, ya'ni ta'lim jarayonlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, bulutli hisoblash va virtual reallik kabi innovatsion yechimlarning jadal kirib kelishi ta'limning mazmuni, shakli va metodologiyasini yangilashni taqozo etmoqda.

Zamonaviy jamiyatda bilimdonlikning o'zi yetarli emas, balki bilimni qanday qo'llash, ijodiy fikrlash, moslashuvchanlik va muammolarni yechish qobiliyati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellekt ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'lishi kerak. Nazarimda SIning foydali jihatlari, butun insoniyat hayotini qanchalik osonlashtirayotgani tanganing bir tomoni xolos. Biz esa sizlar bilan uning ikkinchi tomoni haqida gaplashamiz.

Tafakkur qanday yo'qoladi?

Bugungi kunda maktablar va oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari hamda ota-onalarni jiddiy tashvishga solayotgan muammolardan biri – yosh avlodning deyarli barcha aqliy faoliyatini SIga topshirib qo'yayotganidir. Eng murakkab matematik masalalardan tortib, oddiy insho yoki fikr bayonigacha bo'lgan vazifalar bir necha soniya ichida SI tomonidan bajarib berilmoqda. Natijada o'quvchi yoki talaba bilimni yaratuvchi subyekt emas, balki tayyor mahsulotni qabul qiluvchi iste'molchiga aylanib qolmoqda. Bu holat yoshlarning tobora dangasalashib borishiga, intellektual mehnatdan qochishiga olib kelmoqda. Chunki inson miyasi ishlatilmagan sari rivojlanmaydi, balki sekin-asta pasivlashadi. Tasavvur qiling, uzoq vaqt ishlatilmagan pichoq sekin-asta o'tmaslasha boshlaydi, u temirdan bo'lsa zanglashi ham mumkin. Agar inson miyasi kamroq ishlab tafakkur qilmay qo'ysa nimalar yuz beradi?

Tadqiqotlarga qaraganda, 2010–2015-yillar oralig'ida insonda diqqatni

jamlab turish 10–12 soniya, hozirgi kunga kelib esa bu ko'rsatkich 8.25 soniyagacha kamaygan. Guvohi bo'lganingizdek, o'sishning o'rniga diqqatni jamlab turish koeffitsiyenti kamayib ketmoqda. Buning boisi nimada?

Mayli, uzoqqa bormasdan, shundoqqina tuman va viloyatlardagi maktab o'quvchilari misolida sizlarga bir narsani aytib bermoqchiman. 2022-yili maktabda tahsil olayotgan vaqtlarim endigina ChatGPT haqida eshitgan edik. Boshida hamma o'quvchilar hayratda, nahotki har qanday savolga javob bera oladigan robot yoki bot yaratilibdi deya quloqlarimizga ishonmagan edik. Xuddi imkonsiz narsadek tuyulgandi. Keyin bilsak ChatGPT o'zbek tilida emas rus, ingliz va dasturga kiritilgan boshqa tillarda javob berar ekan. O'shanda biz qiziqib Google tarjimon orqali savollarni tarjima qilib ChatGPTga tashlab ko'rganmiz. 10 ta test tashlagan bo'lsak 3 yoki 4 tasi to'g'ri chiqqan edi. Keyin esa o'qituvchidan gap eshitmaslik uchun bu mavzuni yopdik.

Oradan vaqt o'tib endi o'zbek tilida har qanday savolga javob bera oladigan, rasm, videolar ishlay oladigan SI haqida eshitib qoldik. Ha, ha, hammasi o'sha nuqtadan boshlangan edi. Telefonga yuklab olish va undan ro'yxatdan o'tish juda oson edi. E-mail kiritsa bo'ldi. Keyin esa ommaviy ravishda barcha imtihonlardagi savollarga aynan sun'iy intellekt bergan javoblarni ko'chirishni boshladik. U ham mayli, adabiyot fani o'qituvchimiz "Alpomish" dostoni yuzasidan insho yozishimiz haqida aytganida ham sinfdoshlarim oson yo'ldan foydalanib SI yozib bergan inshoni shundoqqina daf-talariga ko'chirib berishgan edi. Ammo adabiyot ustozimiz 90 foiz o'quvchi bir-biriga o'xshash insho yozgani (ya'ni ko'chirganliklari) uchun 3 va 4 baho qo'yan edi. Bunday holat oradan 2 yil o'tib, hozir maktab o'quvchilari orasida odat tusiga kirgan, miyani ishlatish shart emas, barmoqlar va telefon klaviaturasi orqali hamma masalalarga javob topsa bo'ladi. Chunki XXI asr yoshlarida SUN'IY INTELEKT bor! Bizning o'rnimizga u fikrlaydi!

Agar yoshlar hamma narsa uchun SIDan foydalanishga o'rganib qolishsa, o'zlari fikrlab tahlil qilmasa, muammo ustida mustaqil o'ylash, xatoga yo'l qo'yish, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayoni sun'iy intellekt zimmasiga yuklansa, inson tafakkuri tabiiy ravishda o'z funksiyasini yo'qota boshlaydi.

Eng xavfli jihati shundaki, bunday jarayon yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini yemiradi. O'zlari mus-

taqil qaror qabul qilish xususiyatidan mahrum bo'ladi. Tanqidiy fikrlash – bu shaxsning axborotni tahlil qilish, solishtirish, shubha bilan qarash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatidir. Agar har bir savolga tayyor javob mavjud bo'lsa, insonda savol berish ehtiyoji yo'qoladi. Savol yo'q joyda esa tafakkur ham, rivojlanish ham bo'lmaydi.

Shuningdek, sun'iy intellektga haddan tashqari tayanish yoshlarning shaxsiy dunyoqarashi va individual pozitsiyasi shakllanishiga jiddiy xavf tug'diradi. Fikr bildirish, himoya qilish, bahs-munozara yuritish kabi muhim ijtimoiy va intellektual ko'nikmalar asta-sekin so'nib boradi. Inson o'z fikrini yo'qotgan paytda esa u oson boshqariladigan, tashqi ta'sirlarga tez beriladigan shaxsga aylanadi.

Tarixiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan qaralganda, shaxsiy fikrini yo'qotgan jamiyatlar doimo fojiaga yuz tutgan. Chunki mustaqil fikrlay olmaydigan avlod yolg'on axborotni haqiqatdan ajrata olmaydi, manipulyatsiyaga tez uchraydi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishdan qochadi, innovatsiya va taraqqiyotga emas, tayyor qoliqlarga suyanishga ruju qo'yadi.

Ta'lim tizimining asosiy vazifasi faqat bilim berish emas, balki fikrlovchi, savol beruvchi, bahslash oladigan, ijodkor shaxsni tarbiyalashdir. Agar sun'iy intellekt ta'limda faqat qulaylik va tezkorlik nuqtayi nazaridan joriy etilsa, u rivoj emas, balki intellektual inqirozga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimi oldida muhim vazifa turibdi: sun'iy intellektni o'quvchining o'rniga fikrlovchi vosita sifatida emas, balki fikrlashni rivojlantiruvchi yordamchi instrument sifatida qo'llash. Aks holda, kelajak avlod texnologik jihatdan kuchli, ammo tafakkur va shaxsiyat jihatidan zaif bo'lib shakllanishi xavfi mavjud.

SIDan to'g'ri foydalanilmasa ta'lim tizimi va yoshlar ongi jar yoqasida borib qolishi mumkinligi to'g'risida to'xtalib o'tdim. Tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi sun'iy intellektning jadal rivojlanishi ta'lim tizimida faqat xavf va muammolarni emas, balki ilgari mavjud bo'lmagan ulkan imkoniyatlarni ham yuzaga chiqarmoqda. To'g'ri yo'naltirilgan va ilmiy-pedagogik yondashuv asosida qo'llanilgan sun'iy intellekt ta'lim sifatini oshirish, bilimga teng kirish imkoniyatini yaratish hamda inson kapitalini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan, sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim modeli an'anaviy "barcha uchun bir xil dastur" yondashuvini rad etadi. Masalan, xalqaro miqyosda keng qo'llanilayotgan Khan Academy, Duolingo va Coursera platfor-

malarida SI algoritmlari o'quvchining xatolari, o'rganish tezligi va qiziqishlarini tahlil qilib, individual topshiriqlarni taklif etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsiylashtirilgan ta'limdan foydalangan o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasi an'anaviy usullarga nisbatan o'rta-cha 30–40 foiz yuqori bo'ladi.

Ikkinchidan, sun'iy intellekt ta'lim olish joy va vaqt tanlamasligini ham isbotlab berdi. Masofaviy ta'lim platformalari, SI-tyutorlar va avtomatik tarjima tizimlari orqali geografik cheklovlar bartaraf etilmoqda. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda malakali o'qituvchilar yetishmasligi muammosi SI asosidagi virtual o'qituvchilar yordamida qisman hal qilinmoqda. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, raqamli va SI asosidagi ta'lim vositalari millionlab yoshlar uchun sifatli ta'lim olish imkonini yaratgan.

Uchinchidan, sun'iy intellekt kreativ va innovatsion ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Dasturlash, dizayn, muhandislik va ilmiy-tadqiqot sohalarida SI yordamchi sifatida ishlatilganda, o'quvchi tayyor javob emas, balki yechim ishlab chiqishga yo'naltiriladi. Masalan, STEM va robototexnika yo'nalishlarida sun'iy intellekt o'quvchilarni tajriba qilishga, xatodan o'rganishga va innovatsion fikrlashga undaydi. Sun'iy idrok yordamida zamonaviy ta'lim tizimi tezkor, moslashuvchan va global mehnat bozori talablariga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash imkoniga ega bo'lmoqda. Biroq ikkinchi tomondan, sun'iy intellekt-dan nazoratsiz va maqsadsiz foydalanish yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini susaytirishi, shaxsiy dunyoqarashining shakllanishiga to'sqinlik qilishi va intellektual dangasalikka olib kelishi mumkin. Inson o'z fikrini yo'qotgan joyda esa ijodkorlik, mas'uliyat va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati zaiflashadi. Bu holat nafaqat individual shaxs, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham jiddiy xavf tug'diradi.

Shu sababli ta'lim tizimining asosiy vazifasi sun'iy intellektni inson tafakkurining o'rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki uni rivojlantiruvchi, chuqurlashtiruvchi va yo'naltiruvchi intellektual yordamchi sifatida qo'llashdan iboratdir. Texnologiya emas, markazida inson bo'lgan ta'lim modeli shakllantirilgandagina raqamli transformatsiya haqiqiy taraqqiyotga aylanadi. Buni joriy qilish uchun esa ota-onalar hamda o'qituvchilar farzandlari ta'limiga befarq bo'lmashliklari darkor. Kelajak ta'limi sun'iy intellekt va inson tafakkuri o'rtasidagi muvozanatga tayanishi lozim. Faqat shundagina biz texnologik jihatdan rivojlangan, mustaqil fikrlovchi, ijodkor va mas'uliyatli avlodni tarbiyalay olamiz.

Hulkar PO'LATOVA,
O'zJOKU talabasi

MA'NAVIY "FAST-FOOD": nega ildizimizdan uzoqlashyapmiz?

O'n ikki yoshlar atrofida edim. Bahorning musaffo tongi... Ko'zimni ochdim-u, issiqqina ko'rpadan turgim kelmasdi. Boshimni biroz ko'tarib, karovatda kitob mutolaasiga sho'ng'igan bobomga ko'zim tushdi. Hayron qoldim: kechqurun uxlashimdan avval ham shu holatda edi, tong sahar ham qo'lida kitob. Nahotki tuni bilan uxlamagan bo'lsa?

- Bobo, uxlamadingizmi? – so'radim sekin.
- Bobom muloyim jilmayib javob berdi:
- Uxladim, qizim. Lekin kitobning davomini tezroq o'qishga sabrim yetmadi, erta turib oldim.

Hovliga chiqdim. Qushlar go'yo bir maqomda sayrar, tog'lar orasidan quyosh nurlari "chiqsammi-chiqmasammi" degandek mo'ralab turardi. Yuz-qo'limni yuvib, yana bobomning yoniga o'tirdim. Ko'zlarimdan asar haqida so'ramoqchiligimni sezdi chog'i, so'zlay ketdi. O'shanda Pirimqul Qodirovning "Avlodlar dovoni" romani haqida gapirib bergandi. Humoyun barcha ukalarini yig'ib, birgalashib tarvuz yeyishgani va bir bo'lak tarvuz ortib qolgani haqidagi sahna... Shunda u: "To'rt kishiga bitta tarvuz yetib ortdi-ku, nega taxtni talashamiz? Bu saltanat hammamizga yetadi", degan ekan.

Men bu hikoyalarni hayrat va zavq bilan tinglardim. Kun bo'yi maktabda o'sha savol qiynardi: "Humoyunning ukalari bu nasihatga quloq tutisharmikan?". Uyga shoshardim. Bobomga asarni o'zim o'qimoqchiligimni aytganimda, u: "Avval "Yulduzli tunlar"dan boshla" dedi. Boburning yosh boshiga tushgan adolatsizliklarni o'qirkanman, alamimdan ko'zinga yosh kelardi. Bu asarni tugatib ulgurmay, bobom yangi dunyo eshiklarini ochardi: Aleksandr Dyuma, "Graf Monte-Kristo". Abbat Faria va Edmon Dantesning qamoqdagi sarguzashtlari... Qopdagi Dantesni solib dengizga uloqtirishgan sahnalarda: "Bir... ikki... uch!" – yuragim vahimadan to'xtab qolay derdi. Kun bo'yi xayolimda faqat bir o'y: "Dantes qanday tirik qoladi?".

Bobomning hikoyalari sabab kitoblarni olamiga kirib keldim. Mana, oradan 14 yil o'tdi. Bugun texnologiyalar davri. Biz bolalardan kitob o'qishni talab qilamiz-u, lekin o'zimiz internet tarmoqlari bilan bandmiz. Xo'sh, bolalarni qiziqtirish uchun ularga qaysi asarlardan hikoya aytib berdik? O'zimiz nimalarni o'qiyapmiz: "Kaktuslar ham gullaydimi?" yoki "Dengiz haqida so'zlab ber" kabi yengil-yelpi narsalarnimi?

Yaqinda bir kitob do'koniga kirdim. Atrof faqat motivatsion va psixologik asarlar bilan to'la: "Boy ota, kambag'al ota" va turli biznes darsliklari... Sotuvchiga yuzlandim:

- Nega badiiy asarlar bunchalik kam?
- Hozir yoshlar shunaqa narsalarni o'qiyapti, talab shunaqa, – javob berdi u.

– Nega? Axir o'zimizning Said Ahmad, Pirimqul Qodirov, Abdulla Qodiriy-chi? Jahon adabiyotidan Aleksandr Dyuma, Dostoyevskiy, Konan Doyle-chi? Men shu asarlar bilan katta bo'lganman, – dedim o'pkalanib. – Bilmadim, men hozirgi yangi kitoblarga qiziqolmayapman, uzog'i o'n bet o'qiyman, xolos.

Sotuvchi amaki mahzun jilmaydi:

- Hozirgina Qodiriyning "Mehrobdan chayon"ini tugatdim. Bu asarlar "og'ir", ruhni tarbiyalaydigan asarlar. Hozirgi yoshlar esa yengil kitoblarga o'ch. Men bu kitoblarni "Fast-food" taomlariga o'xshataman – yeyish oson, hazmi yengil, lekin organizmga (ruhiyatga) foydasi yo'q.

Kutubxonadan chiqarkanman, o'yga toldim: bunga o'zimiz aybdor emasmizmi? Bugun otalarning dardi – biznes, onalar esa instagramdagi motivatsion kurslar bilan band. Farzandlarimiz shuning uchun ham o'shanday kitoblarga qiziqayapti.

Albatta, barcha oilalar shunday demoqchi emasman. Bobom kabi kitobxon nuroniylarimiz, ziyoli ota-onalarimiz borligi bizning baxtimiz. Ammo bir narsani unutmasligimiz kerak: chinorning ildizi chuqur bo'lsa, u har qanday issiqqa chidaydi. Biz farzandlarimizni "fast-food" adabiyotlar bilan emas, ildizi baquvvat bo'lgan o'lmas klassika bilan sug'orishimiz shart. Zero, ma'naviyatda "qisqa yo'l" va "yengil hazm" degan tushunchalar bo'lmaydi.

Taxmina NISHONBOYEVA,
Samarqand agroinnovatsiyalar va
tadqiqotlar instituti talabasi

Taassurot



Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" romani jahon adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan javohir va umrboqiy asarlardan biridir. Kitob javonimdagi "O'tkan kunlar", "Faust", "Jinoyat va jazo", "Telba", "Tirilish" va "Qiyomat" romanlarini har yili qo'limga olib, qayta-qayta mutolaa qilaman.

"Qiyomat" romanida jamiyat va tabiat munosabatidagi tuzatib bo'lmaz og'ir muammolar, to'g'ri-lik va mehnatsevarlik bilan murodga yetish hamda go'zal hayot kechirish mumkinligi, aksincha, dangasalik va ichkilik kabi illatlarga mukkasidan ketish insonni abgor-u xor etishi zo'r mahorat bilan tasvirlangan. O'quvchi asarni mutolaa qilish jarayonida

"Qiyomat" romanida inson va tabiat fojiasi

ezgulik bilan yovuzlikning murosasiz kurashiga guvoh bo'ladi. Bu vijdonli va ilimli Avdiy Kallistratovning botqoqqa botayotgan og'ufurushlar – manfur Grishan va uning shotirlari Maxach, Kolya, Lyoxa hamda Petruxalarni to'g'ri yo'lga solishga urinishi misolida yaqqol ko'rinadi.

Avdiyini, ayniqsa, o'smir Lyoxa va tengdoshlarining giyohvandlik domiga tortilib, o'z umrlarini zaharlayotgani qattiq iztirobga soladi. U bu balo nafaqat insonning o'zini, balki butun boshli oilalar va jamiyatni yemirayotganini teran his qiladi. Shu bois u yoshlarni qutqarish ilinjida kuyib-pishadi. Ammo johil va tuban kimsalar uning insonparvarlikka yo'g'rilgan da'vatlarini tushunish o'rniga, uni harakatlanib ketayotgan poyezddan uloqtirishadi. Taqdir taqozosi bilan Avdiy omon qoladi.

Biroq uning qalbini larzaga solgan fojealar bu bilan tugamaydi. Mo'yinqum dashtida sayg'oqlarga qarshi uyushtirilgan vahshiyona qatliomni ko'rgan Avdiy insonning tabiatga nisbatan naqadar shafqsiz bo'lib ketganidan dahshatga tushadi. U Ober-Kandalov boshchiligidagi razil to'dadan bu qirg'inni to'xtatishni talab qiladi. Lekin ular Avdiyini ayovsiz kaltaklab, saksovuлга osib qo'yishadi va beozor, halol, tafakkur egasi shu

tarzda halok bo'ladi. Yozuvchi Avdiy obrazi orqali haqiqat va adolat yo'lida kurashgan insonning fojia-viy qismatini nihoyatda ta'sirchan tasvirlaydi.

Bo'rilar – Toshchaynar va Akbara timsolida yozuvchi tabiatning ham dardi, ham fojeasini ko'rsatadi. Odamzodning ochko'zligi va shafqsizligi tufayli nafaqat insoniy qadriyatlar, balki tabiat muvozanati ham izdan chiqayotgani kitobxon qalbini larzaga soladi. Toshchaynar va Akbara Mo'yinqumda yashardi, odamlar esa ularga juda vahshiyona munosabatda bo'lishardi. Ikkala bo'ri doim ta'qib va musibat ichida yashaydi. Ilk bolalari kon yo'li ochilayotgan paytda qamishzor yondirilgandagi tundan bo'g'ilib o'ladi. Keyingilari esa sayg'oqlar qirg'inida halok bo'ladi. Qariganda ko'rgan bolalarini esa aroxo'r, hasadgo'y Bozorboy o'g'irlaydi va sotib, pulini ichib yuboradi. U bo'ri bolalarini o'g'irlagan payti Toshchaynar va Akbara uning ortidan ta'qib qiladi. Bozorboy Bo'stonnikiga kirib, jon saqlaydi. Endi har kuni ota-ona bo'ri Bo'ston hovlisi atrofida uvillab, nola qilardi...

Asardagi Bo'ston juda yaxshi odam. U mehnatkash, halol, tartibli va oilaparvar inson edi. U tin-

may mehnat qiladi, yomon odatlardan o'zini tiyadi. O'zidan boshqa suyanadigani, tayanadigani bo'lmasa ham, oilasi to'q va farovon yashaydi. Afsuski, Bo'stonning tinch va halovatli hayoti johil, ichi qurum bosgan Bozorboy tufayli fojea bilan yuzlashadi. Ona bo'ri Akbara Bo'stonning quvonchi, yuragining parchasi bo'lgan o'g'li Kenjashni olib qochadi. Bo'ston Akbarani to'xtatish uchun o'q uzadi, ming nadomatki, o'q bolasining ko'kragini teshib o'tadi... Bundan qalbi va hayoti ostin-ustin bo'lgan Bo'ston ko'rguligining sababchisi Bozorboyni otib tashlaydi va ko'l bo'yida o'zi ham hayot bilan vidolashadi.

Shunday qilib, qabih va tuban Bozorboy nafaqat o'zi, balki Bo'stonning ham shirin hayotini zaharlashi, barbod qilishi og'ir fojeadir. Grishan-u Petruxalarning o'zlariga qo'shib boshqalarni ham og'u bilan zaharlashi, ularni yorug' yo'lga boshlamoqchi bo'lgan pokiza va ilimli Avdiylarning o'limi esa chinakam qiyomatdir.

Ulug' adib Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" asari insoniyatni ogohlantiruvchi, uni ma'naviy uyg'onishga da'vat etuvchi buyuk falsafiy romandir.

Mahmud MAHMUDOV,
Abdulla Qodiriy nomidagi ijod
maktabi o'quvchisi

Maktub

"Baxtsiz kuyov"lar haliyam bor

Hurmatli Abdulla Qodiriy! Bundan bir asr oldin yozgan "Baxtsiz kuyov" pyesangizni o'qir ekanman, undagi fojialar faqat tarixda qolib ketmaganini, hamon jamiyatimizda mavjud ekanini his qildim. Siz ta'riflagan davrdagi urf-odatlar bugun ham ayrim oilalarni boshqarayotganining guvohi bo'lyapmiz.

Siz bilan yuzma-yuz gaplashish imkoni bo'lmasa-da, pyesangizni o'qib qalbimda kechgan hislarimni bayon etmoqchiman. Avvalo, dramangizda aks ettirganingiz inson taqdirini uvol qilgan qoidalar hali ham uchrab turgani achinarli. Asaringizdagi Solih fojiasi – bir oilaning fojiasi emas, balki butun jamiyat uchun ogohlantirish edi. Biroq o'zbeklar bugun ham urf-odatlar deb qarz ko'tarib to'ylar qilayotir. Solih kabi to'y uchun qarz bo'lgan yigitlar uni to'lash uchun yangi kelinni qoldirib, chet elga ishlashga ketyapti.

Bir qo'shniq qo'li yuqa bo'lishiga qaramay, 300 kishilik to'y qildi, qo'shnilar bilan bordik: to'yda jondan boshqa hamma narsa bor. Yeb-ichganimizdan tashqari qancha noz-ne'mat dasturxonda qoldi. To'ydan ikki oy o'tib, yigit olingan qarzlarni to'lash uchun Moskvaga ketdi, kelin esa uyda qoldi. Ya'ni Fayziboydek odamlarning og'ziga dabdaba bilan "urish"ga intiladiganlar ham topilayotir... Mana "baxt"... Ammo bu illatlarga qarshi ellikboshi singari jamiyatimizda mahalla faollari kurashmoqda, qonun va qarorlar qabul qilinmoqda.

Ustoz Qodiriy! Siz ko'targan dard hanuz davom etayotganini tan olishimiz lozim. Dramangiz kecha yozilgandek go'yo. Shu bois, u hanuz dolzarb, hanuz tirik.

Hurmat bilan o'quvchingiz Durdona ISROILOVA,
O'zJOKU talabasi



Diplom muhimmi yoki ko'nikma?



Bugungi kunda yoshlar orasida eng ko'p muhokama qilinayotgan masalalardan biri: diplom muhimmi yoki haqiqiy ko'nikmalar ustunmi? An'anaviy qarashlarga ko'ra, oliy ma'lumot va diplom muvaffaqiyat garovi. Biroq zamonaviy mehnat bozorida ish beruvchilar tobora amaliy bilim, tajriba va real ko'nikmalarga ko'proq e'tibor qaratmoqda.

Diplom insonning ma'lum bir sohada bilim olganini tasdiqlovchi hujjat. Aslini olganda, bilim hammaga ham birdek singavermaydi. Biroq oliy ta'lim muassasasiga o'qish uchun kirgan talabani u yerdan qay darajada bilim va ko'nikma bilan chiqib ketishi – bu avvalo uning o'ziga bog'liq. Diplomi borligi insonning haqiqiy bilimli ekanini to'liq anglatmaydi. Talaba hech bo'lmaganda universitet davrida dunyoqarashini kengayitirilsa, hayotiy tajriba orttirsas, bu uning muhim yutug'i hisoblanadi.

Ko'pincha kattalarimiz “biz o'qimaganmiz, uqqanmiz” deyishadi. Ammo bugungi kunda oliy ta'limda tahsil olib turib ham hech narsani o'rganmayotgan yoshlar haqida nima deyish mumkin? Bu holat diplomning o'zi yetarli emasligini yana bir bor isbotlaydi. Chunki ilm faqat oliy ta'limda o'qish bilan cheklanmaydi – u insonning ichki dunyosi, qiziqishi va o'z ustida ishlashiga bog'liqdir.

Ko'nikma – bu insonning bilimini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. U, ayniqsa, real hayotiy vaziyatlarda, ish jarayonida va muammolarni hal qilishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'nikmaga ega inson nafaqat biladi, balki bajara oladi, bu esa uni professional darajaga olib chiqadi.

Bugungi kunda mobilografiya, SMM, dizayn, dasturlash kabi yo'nalishlarda aynan amaliy ko'nikmalar birinchi o'ringa chiqmoqda. Bu sohalarida faqat daftar to'ldirib, nazariy bilim yig'ish yetarli emas. Inson o'zi mustaqil ishlashi, tajriba orttirishi, xatolardan saboq chiqarishi kerak bo'ladi.

Shu sababli, zamonaviy mehnat bozorida ish beruvchilar ko'proq “Nima bilasan?” dan ko'ra, “Nima qila olasan?” degan savolga javob izlashmoqda.

Eng to'g'ri yo'l – bilim va ko'nikmani birgalikda rivojlantirishdir. Ana shunda inson har qanday vaziyatda o'z o'rnini topa oladi.

Nodirabegim TOSHEVA,
O'zJOKU talabasi



Zamonaviy mediamakonni sun'iy intellekt texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Ta'kidlash joizki, bir necha soniya ichida katta hajmdagi axborotni yaratish imkoniyati jurnalistika taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Shu bilan bir qatorda, ayrim muammolarni ham vujudga keltirdi.

So'nggi vaqtlarda generatsiya qilingan materiallar mediada urchib ketdi. Alalxusus, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, ba'zan rasmiy platformalarda ham sun'iy intellekt yordamida bitilgan xabarlariga ko'zimiz tushyapti.

Mediasavodxonlikdan bexabar kishi ularni jurnalistlar tayyorlagan deb o'ylayapti. Vaholanki, sun'iy idrok qalamiga mansub “ijod” namunasini fosh etuvchi bir necha usullar mavjud. Quyida ularni birga ko'rib chiqamiz.

“Sun'iy”ni “tabiiy”dan ajratish zarurati

Avvalo, sun'iy intellekt haddan tashqari “sil-liq” va bir tekisda o'qiladigan matnlar yaratadi. Gaplar grammatik jihatdan deyarli xatoliklarsiz yoziladi, fikrlar izchil ravishda bayon etiladi. Abzaslar hajmi, so'zlar miqdori ham uyg'unlik hosil qiladi(!). Individual uslub, emotsionallik yetishmaydi. Bir so'z bilan aytganda, material “jonli” chiqmaydi.

Sun'iy intellekt aksar hollarda mavzuni umumiy ta'riflar bilan boshlaydi. Jumladan, “texnologiyalar rivojlanmoqda”, “jamiyatga ta'siri katta” kabi jumalarni ishlatadi. Konkret misollar, shaxsiy kuzatuv yoki muallif pozitsiyasini lupa bilan qidirib ham topolmaysiz.

Ko'plab generativ materiallarda o'quvchining his-tuyg'ulari bilan hisoblashilmaydi. Axborot yetkaziladi, lekin auditoriyani ushlab turuvchi, oxirigacha o'qishga chorlovchi unsurlar “mana men”, deb bo'y cho'zib turmaydi. Publist esa so'z orqali o'quvchiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kayfiyat ulashadi. Munosabatni

shakllantiradi.

Aqlli ko'makchi ko'p hollarda mavjud bo'lmagan statistik ma'lumot, noto'g'ri sana yoki uydirma manbalarni taqdim etadi. Bu holat “gallyutsinatsiya” deb ataladi. Shu bois SI yordamida tayyorlangan har qanday kontentni tekshirish, fakt-chekingdan o'tkazish darkor.

Bugungi kunda SI orqali yozilgan matnlar ni aniqlovchi turli servislarda ishga tushirilgan. Ulardan biri – o'zbek tilida ishlovchi Detec-

ting-ai.com platformasi. Shuningdek, GPT Zero yoki ZeroGPT singari vositalar ham matnning generativlik ehtimolini aniqlashga xizmat qiladi. Matnning qaysi qismi sun'iy intellekt, qaysi qismi inson tomonidan yozilganini tahlil qiladi. Biroq 100 foiz to'liq va to'g'ri natija chiqara olmasligini unutmaslik kerak.

Har qanday matnga tanqidiy nuqtayi nazar bilan qarashni davrning o'zi taqozo etmoqda. O'quvchi manbani tekshirishi, faktlarni solishtirishi va yozilish uslubiga diqqat qilishi darkor. Chunki sun'iy intellekt imkoniyatlari kengayishi barobarida axborotning ishonchlilik masalasi kun tartibiga chiqmoqda.

Zero, essenavis Sevara Alijonova aytganidek, sun'iy va tabiiy matnlarni farqlashda “Sifatliroq instrument – odam va uning tajribasi” hisoblanadi.

Ulug'bek SHAROBIDDINOV,
O'zJOKU talabasi

Muammo va yechim

Ta'lim maskani ilm dargohimi yoki g'azna?



Bugun OTMlar haqida so'z borganda, ko'z oldingizga kontrakt pullari to'planadigan g'azna keladi. Ammo jamiyatga qanday mutaxassislarni yetishtirib beryapmiz? Birgina universitet misolida respublikamizdagi barcha OTMga ko'zgu tutaman degan fikrdan yiroqman, albatta. Biroq yurtimizdagi bir qancha nufuzli universitetlarda ustuvor maqsad talabalarning sifatli bilim olishi, ularning yaxshi kadr bo'lib shakllanishi emas, ulardan keladigan daromad (kontrakt va kredit to'lovlari) bo'lib qolayotgani, afsuski, haqiqat.

Masalaga chuqurroq kirsak: OTMlarda qabul kvotalari yildan yilga oshib borayotgan bo'lsa-da, mutaxassis pedagoglar yetishmasligi, o'quv rejalari puxta ishlanmagani ko'zga tashlanadi. Ikki yoki to'rt soatda o'zlashtirish mumkin bo'lgan mavzular sun'iy ravishda yarim o'quv yiliga cho'zilishi-yu, aksincha, chuqur tahlil talab qiladigan fanlarning yuzaki o'tib ketilishi, amaliyot orqali chuqur o'rganiladigan yo'nalish va mutaxassisliklar uchun esa amaliy darslar tashkil etilmasligi bir yon bo'lsa, ularning hatto nazoratga olinmayotgani yana bir taraf. Yuqoridagilarni qayd etayotib, bir kitobda o'qiganim yodimga keldi: “Barchamiz, farroshdan tortib, hatto eng yuqori bo'g'in rahbarlarimizgacha o'z vazifamizni to'lato'kis, vijdonan bajarganimizda edi, jamiyatda hech qanday muammolar yuzaga kelmadi”.

Avvalo, bu muammolarga yechim topishdan oldin, kunda yuzlashishimiz

mumkin bo'lgan kichik masalalarga chiroyli shaklda barham berishimiz lozim deb o'ylayman. Shu o'rinda oliy ta'lim jarayonlariga bevosita guvoh bo'lgan, bo'layotgan talaba sifatida yana ikki og'iz to'xtalsam: bugun bir ilm tolibi muammosi bilan mas'ul xodimning qabuliga kirsayu, unga “Menga odoljeniy qilmang”, deb osmondan kelib muomala qilinsa... Shu onda savol tug'iladi: o'quv jarayoniga mas'ul bo'lgan bo'lim mudiri yoki mutasaddining asl vazifasi nimadan iborat? Mas'ul shaxs tinglashni bilishi, vaziyatni o'rganib, masalaga adolatli yechim topishi kerak emasmi? Talaba murojaat qilib kiradigan dargoh qachon quruq tavoze va tilyog'lamalik maydoniga aylanib ulgurdi ekan? Nahotki oliy ta'limda talabani huquqlari va sifatli bilim olishidan ko'ra, mutasaddilarning shaxsiy “meni” ustunroq tursa. Yoki jamiyatga bilimli mutaxassis emas, balki faqat “xo'p” deya, boshini quyi solgan “intizomli”lar darkor bo'lsa?..

Universitet binolari hashamatli, shiorlari-miz ham shunga hamohang... ammo ichkarida mas'uliyatsizlik va kibrnig sovuq nafasini his etasiz.

Bugun oliy ta'lim muassasalarida talaba bilan darsdan tashqari muloqot qilishni o'ziga ep ko'rmaydigan pedagoglar qatlami shakllanib borayotganiga qanday qaraysiz? “Menga pochta orqali yozing”, degan jumla “meni bezovta qilmang”, degan “signal” emasmi aslida? Telefon raqami ham, ijtimoiy tarmoq ham talabalar murojaati uchun yopiq, berilgan elektron pochtdan esa o'qituvchi talabaga istasagina javob beradi, istamasa yo'q. Ta'lim auditoriya eshigi yopilishi bilan tugaydigan jarayon emasligini qachon anglaymiz?!

Yana bir og'riqli nuqtamiz: nega o'quv yili boshida kredit tizimidagi o'zgarishlar batafsil tushuntirilmaydi? Darslarga muntazam qatnashgan, fanni yaxshi o'zlashtirgan talaba bilan auditoriyaga qadam bosmagan talabani

kredit qarzdori sifatida bir qatorda turishi qaysi mezonga to'g'ri keladi? Universitetning magistratura bosqichiga oradan yillar o'tib kirgan talabani o'quv jarayonidagi baholash talablarini bilmasligi uni ayblash uchun asos bo'la oladimi? Yoki vaziyatni avvaldan nazoratga olmagan mas'ullarning beparvoligimi bu? Universitet hisobiga kredit to'lovini undirishning maqbul yo'lidir balki?..

Ha, savollarim ko'p, o'qishim davomida yana qanday savollar mushohadaga chorlaydi, bilmadim. Ammo shuni angladimki, jurnalistika mutaxassisligi magistranti sifatida bu vaziyatda sukut saqlash nafaqat o'zim, balki adolat va kasbimga ham xiyonatdir. Shu o'rinda, takliflarimni bildirsam:

- oliy ta'lim muassasalarida talabalar va ma'muriyat o'rtasida anonim va ochiq muloqot platformalarini yo'lga qo'yish;
- kredit tizimi bo'yicha tushunmovchiliklarga barham berish uchun har o'quv yili boshida huquqiy tushuntirish ishlari o'tkazishni qat'iy tartibda belgilash;
- pedagoglarning talabalar bilan ishlashi hamda murojaatlarga javob berishi bo'yicha ichki reyting tizimini joriy qilish kerak.

Umid qilamanki, yurtimizdagi barcha oliy o'quv yurtlarida birlamchi maqsad sifatli ta'lim berish va yaxshi mutaxassislarni tayyorlash bo'lib qoladi. Zotan, jamiyatga tafakkuri keng, bilimli kadrlar suv va havodek zarur.

Gulnoza BEGIMQULOVA,
O'zJOKU magistranti

Huquqiy burchak

HIMOYA ORDERI QANDAY OLINADI?

So'nggi yillarda ham dunyo miqyosida, ham jamiyatimizda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik, kamsitish va ularning huquqlarini poymol etish holatlari tobora ko'proq qayd etilmoqda. Bu holatlar nafaqat jismoniy zo'ravonlik shaklida, balki ruhiy bosim, iqtisodiy cheklash, tahdid, majburlash va ijtimoiy izolyatsiya kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Bunday xatti-harakatlar ayollarning shaxsiy erkinligi, qadr-qimmati va insoniy huquqlariga jiddiy putur yetkazadi.

Achinarlisi shundaki, zo'ravonlikning asosiy qismi ayollarga eng yaqin bo'lgan shaxslar – turmush o'rtog'i, otasi yoki aka-ukasi tomonidan sodir etilmoqda. Ya'ni ayol o'zini himoyalangan his qilishi lozim bo'lgan oilaviy muhitda, aksincha, qo'rquv, bosim va adolatsizlikka duch kelmoqda. Bu esa oilaning asl mohiyati – mehr, hurmat va o'zaro ishonch tamoyillariga mutlaqo ziddir.

Ko'pincha bunday zo'ravonliklar "oilaviy masala" yoki "shaxsiy nizolar" sifatida baholanib, jamiyat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Natijada ayollar zo'ravonlik holatini oshkor etishdan qo'rqadi, o'z huquqini talab qilishga jur'at etolmaydi va uzoq vaqt davomida tazyiq ostida yashashga majbur bo'ladi. Bu esa zo'ravonlikning yanada chuqurlashishi va takrorlanishiga zamin yaratadi.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik nafaqat individual muammo, balki **ijtimoiy xavfli hodisa** bo'lib, u jamiyat barqarorligi, sog'lom avlod tarbiyasi va inson huquqlarining ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bu masalaga nafaqat ma'naviy yoki oilaviy, balki **huquqiy, ijtimoiy va institutsional muammo** sifatida yondashish zarur. Ayollar huquqini himoya qilish, zo'ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish va samarali himoya mexanizmlarini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Shundan kelib chiqib ayta olamizki, **"Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 4-moddasiga** muvofiq tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- o'ziga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etilganligi yoki ularni sodir etish tahdidi to'g'risidagi ariza bilan tegishli vakolatli organlarga hamda tashkilotlarga yoxud sudga murojaat etish;

- maxsus markazlarda, shuningdek, bepul telefon liniyasi orqali tekin huquqiy maslahat, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam olish;

- ichki ishlar organlariga himoya orderi berish to'g'risidagi talab bilan murojaat qilish, himoya orderi shartlari buzilgan taqdirda esa ularni bu haqda xabardor qilish;

- sodir etilgan tazyiq va zo'ravonlik natijasida o'ziga yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanishi hamda ma'naviy ziyon kompensatsiya qilinishi to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat etish.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchi yetkazilgan moddiy zararining o'rini qoplash hamda ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etganda davlat boji to'lashdan ozod qilinadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda zo'ravonlikka uchragan ayollar uchun himoya markazlari, shuningdek, bepul

yuridik maslahatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan loyihalar faoliyat yuritmoqda. Ushbu tashabbuslar ayollarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularning yolg'iz emasligini his ettirish va o'z huquqlarini qonuniy yo'l bilan himoya qilishiga ko'maklashishga qaratilgan.

Shu borada yuridik fanlari doktori, gender tengligi masalalari bo'yicha ekspert va ayollar huquqlarini himoya qiluvchi mutaxassis **Kamola Aliyeva** boshchiligidagi tashkil etilgan Telegram ijtimoiy tarmog'idagi **"Ayol huquqi"** nomli bot alohida e'tiborga loyiq. Ushbu loyiha doirasida 20 dan ortiq volontyorlar huquqiy yordamga muhtoj ayollarga bepul yuridik maslahat berib kelmoqda. Bot orqali ayollar o'z muammolarini anonim tarzda bayon etish, qonunchilikka oid savollariga javob olish va huquqiy yo'l-yo'riqlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Bundan tashqari, respublikaning barcha viloyatlarida ayollarga huquqiy maslahat beruvchi call-markazlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ushbu call-markazlar orqali zo'ravonlikka uchragan yoki huquqlari buzilgan ayollar tezkor tarzda maslahat olishi, zarur hollarda tegishli tashkilotlarga yo'naltirilishi mumkin. Bu tizim ayollarga masofadan turib yordam ko'rsatish, muammolariga befarq bo'lmaslik va huquqiy himoya mexanizmlarining amalda ishlashini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, zo'ravonlikka uchragan ayollarga faqat maslahat va axborot berish bilangina cheklanib qolinmay, ularning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan **aniq huquqiy mexanizmlar**, jumladan, **himoya orderi** instituti ham amaliyotga joriy etilgan bo'lib, u jabrlangan ayolni zo'ravonlikdan muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Himoya orderi – bu tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni

davlat tomonidan himoya qilishga qaratilgan muhim huquqiy hujjatdir. U ayollarni turli ko'rinishdagi bosim va zo'ravonliklardan asrash, xavfsizligini ta'minlash hamda bunday holatlarning oldini olish uchun beriladi.

Himoya orderini nafaqat turmush o'rtog'idan jabr ko'rgan ayollar, balki boshqa shaxslar tomonidan zulmga uchragan, oilada, ish joyida, ta'lim muassasasida yoki jamoat joylarida tazyiqqa duch kelgan xotin-qizlar ham olishi mumkin. Shuningdek, voyaga yetmagan qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlarida ham himoya orderi rasmiylashtiriladi. Muhimi shundaki, murojaatni faqat jabrlanuvchining o'zi emas, balki uning yaqinlari, qo'shnilari yoki holatdan xabardor boshqa shaxslar ham berishi mumkin.

Zo'ravonlik haqida xabar kelib tushganidan so'ng profilaktika inspektori zudlik bilan holatni o'rganadi. Har qanday murojaat – og'zaki yoki yozma bo'lishidan qat'i nazar, albatta ro'yxatga olinadi va tegishli tartibda hujjatlashtiriladi. Shundan keyin zarur hujjatlar rasmiylashtirilib, jabrlanuvchiga himoya orderi beriladi.

Himoya orderi odatda 1 oy muddatga beriladi. Agar shu vaqt ichida vaziyat ijobiy hal etilmasa yoki zo'ravonlik davom etsa, jabrlanuvchining murojaatiga asosan u yana 1 oy muddatga uzaytiriladi. Order uzaytirilganidan keyin huquqbuzar bilan alohida ishlanadi – unga nisbatan tuzatish dasturi qo'llanilib, psixologlar va mutaxassislar jalb etiladi.

Himoya orderini olish uchun ichki ishlar organlari, profilaktika inspektori, mahalla vakillari yoki maxsus ishonch telefonlariga murojaat qilish mumkin, murojaat qilgan shaxslarning ma'lumotlari qonun asosida sir saqlanadi. Unutmaslik lozimki, ayrim nizoli vaziyatlarga jabrlanuvchining o'zi ham muayyan darajada sababchi bo'lishi mumkin. Biroq bu holat uni himoya orderi olish huquqidan mahrum qilmaydi. Shu bilan birga, har bir shaxs o'z xatti-harakatlari uchun javobgar hisoblanadi.

Charosxon NE'MATOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Dolzarb mavzu

GENDER TENGLIK:

JAMIYAT TARAQQIYOTI SARI MUVOZANATLI QADAM

XXI asr texnologik yuksalish, sun'iy intellekt, raqamli boshqaruv va globallashuv davri bo'lishiga qaramay, gender tengsizlik muammosi hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda. Jamiyatda "Erkak ustun", "Ayol faqat uy uchun" kabi stereotiplar uzoq yillar davomida mustahkam ildiz otgan. Shu sababli gender tenglik masalasi nafaqat axloqiy, balki iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida har tomonlama o'rganishga loyiq.

Gender tenglik – bu faqat ayollar huquqini himoya qilish emas, balki jamiyatda barcha insonlarning jinsidan qat'i nazar, o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish huquqiga egaligini anglatadi. Ammo uzoq yillar mobaynida "Erkaklar jamiyat ustuni" degan qarashlar ijtimoiy ongga chuqur singdirib kelingan. Afsuski, ko'plab davlatlarda hanuz ayollarning faqat maishiy sohada faol bo'lishi tabiiy holat sifatida qabul qilinadi. O'g'il bolalar – kelajakdagi yetakchi, qiz bolalar – uyda qoladigan "or-nomus" timsoli sifatida tarbiyalanadi. Aslida esa ayollar va erkaklar bir-birini to'ldiruvchi kuch sifatida jamiyatda muvozanatni ta'minlovchi ikki qanot. Faqat bittasining ustuvorligi, boshqasining e'tibordan chetda qolishi jamiyatda disbalans, adolatsizlik va salbiy ijtimoiy oqibatlariga olib keladi.

Gender tengsizlik ba'zida ochiq, ba'zida esa juda yashirin shaklda namoyon bo'ladi. Masalan, ko'pchilik mamlakatlarda ayollar parlamentda kam o'rin egallaydi, yirik kompaniyalarda yuqori lavozimlarda kam uchraydi, hatto fan va texnologiya so-

halarida ham ularning vakilligi ancha past. Bu faktlar, albatta, gender muammosi faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va psixologik omillarga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Masalan, ko'plab ayollar oiladagi majburiyatlar, bola parvarishi, jamiyatdagi stereotiplar sababidan mehnat bozorida o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqara olmaydi. Ularga "ayolning joyi oshxonada" yoki "qiz bola o'qib nima qiladi?" degan tushunchalar to'siq bo'lib keladi. Ayni vaqtda esa erkaklardan faqat pul topish, kuchlilik va qat'iylilik talab qilinadi, bu esa erkaklar uchun ham bosim, ruhiy yuk bo'lmoqda. Demak, gender tenglik faqat ayollar muammosi emas – bu erkaklar uchun ham ijtimoiy erkinlikni, tanlov imkoniyatini ta'minlovchi yo'l demak.

Ta'lim va tarbiya tenglik g'oyasining ildizi bo'lishi bilan bir qatorda, uning bir poydevori desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Gender tenglikni ta'minlashda ta'lim tizimi asosiy rol o'ynaydi. Agar bolalikdan boshlab o'g'il-qizlar teng huquqli inson qilib tarbiyalansa, kelajakda ular jamiyatda bir-birini hurmat qiladigan, imkoniyatlarda

raqobatdosh, teng sherik sifatida shakllanadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda yoshlarning ongini shakllantirishda katta kuchga ega. Gender tenglik haqida tarbiyaviy, ijobiy kontent yaratish – jamiyat ongini o'zgartirishda muhim qadam.

Siyosat va qonunchilik tenglikni amalda qo'llab-quvvatlash vositasi

Gender tenglik targ'ibot bilan bir qatorda huquqiy asoslar orqali ham mustahkamlanmog'i zarur. Dunyoda bir qator davlatlar kvotalar, gender muvozanatini ta'minlovchi qonunlar orqali ayollar va boshqa kam vakillikka ega guruhlarining siyosat, iqtisod va jamiyat hayotiga faol jalb etilishiga erishmoqda. Masalan, Norvegiya va Shvetsiya kabi davlatlarda ayollar parlament, vazirlik va oliy lavozimlarda faol ishtirok etishadi. Aytish kerakki, gender zo'ravonlikka qarshi qonunchilikni kuchaytirish, bu borada tezkor yordam xizmatlarini yo'lga qo'yish ham gender tengsizlikning og'ir oqibatlariga qarshi muhim chora hisoblanadi.

Gender tenglik – imkoniyatdir

Gender tenglik aslida ayollar salohiyatini to'la ochib beradigan imkoniyatdir. Ayolning ilm-fan, iqtisod, siyosat va madaniyatda faol ishtiroki jamiyatning katta yutug'i hisoblanadi. Erkakning ham o'z his-tuyg'ularini erkin ifoda etishi,

oilaviy mas'uliyatni teng baham ko'rish – bu yuksak insoniy qadriyat. Gender tenglik borasida dunyo miqyosida boshlangan ijobiy harakatlarda har bir fuqaroning ishtiroki, ongli yondashuvi, birdamlikdagi harakati muhim.

Zero, birgalikda yuksak maqsadlar sari harakatgina taraqqiyot, adolat va barqarorlik sari boshlaydi. Ko'pgina davlatlar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda gender tengsizligi quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- ayollarga past ish haqi to'lanishi;
- qizlarning ta'limga bo'lgan imkoniyatlarining cheklanishi;
- oila va jamiyatda qabul qilingan an'anaviy gender stereotiplari;
- ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari.

Ko'plab ayollar hali-hanuz mehnat bozori, siyosiy tizim va ta'lim sohasida kamsitilish holatlariga duch kelmoqda. Shuningdek, ayrim mamlakatlarda ayollar o'z tanasi va hayoti uchun mustaqil qaror qabul qilish huquqidan mahrum.

Ta'lim sohasida ham qizlarga ilm olish uchun teng sharoitlar yaratish, STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) yo'nalishlarida ularning ishtirokini kengaytirish gender tafovutni kamaytirishga xizmat qiladi. Gender tengsizlik ko'p hollarda an'anaviy madaniyat, diniy qarashlar, iqtisodiy noaniqlik va ta'limdagi tengsizlik natijasida yuzaga keladi.

So'nggi yillarda gender tenglik borasida ijobiy o'zgarishlar ham kuzatilmoqda. Jumladan BMT, UN Women va boshqa xalqaro tashkilotlar bu borada turli tashabbuslarni ilgari surmoqda. Shvetsiya, Norvegiya, Kanada kabi davlatlar gender tenglikni davlat siyosatining markaziga aylantirib, ayollar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Muqaddas ORTIQBOYEVA,
O'zDJTU talabasi

Huquqiy burchak

Aliment to'lash tartibini bilasizmi?

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majbur ekanligi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining V bo'limi oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bo'limda alimentlarni to'lash va undirish tartibi bilan bog'liq munosabatlar tartibga solingan.

Oila kodeksi 96-moddasida "Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart. Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota(ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undiriladi.

Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmaganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan bi-rortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo yoxud ariza bilan murojaat qilmagan hollarda, vasiylik va homiylik organlari, shuningdek, o'n to'rt yoshga to'lgan bola voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun ota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqlidir.

Ota-ona va bola alohida-alohida yashagan taqdirda, vasiylik va homiylik organlari, shuningdek, o'n to'rt yoshga to'lgan bola bir vaqtning o'zida ota va onadan voyaga yetmagan bolalarning ta'minoti uchun aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqli", deb belgilangan.

Voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berishda ota ham, ona ham teng majburiyatga ega. Ya'ni agar farzand otasining qaramog'ida bo'lsa, ota bolaning onasidan aliment undirishi mumkin. Bundan tashqari, aksi holatlar ham mavjud. Ona ham farzandning otasidan aliment undirish huquqiga ega. Uar o'zaro kelishuvga erishmagan holda sudga murojaat qilishlari mumkin. Fuqarolik protsessual kodeksi 170- va 266-moddasiga asosan aliment undirishga oid sud buyrug'i va hal qiluv qarorlari darhol ijro etiladi.

Aliment miqdori qaysi mezonga asosan belgilanadi?

Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi uchun aliment to'lash tartibini o'zaro kelishgan holda belgilashga haqli. Ushbu kelishuv qonunda belgi-



langan qoidalarga va bola manfaatlariga zid bo'lmisligi kerak. Agar voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida o'zaro kelishuv bo'lmasa, voyaga yetmagan ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota yoki onaning har oydagi ish haqi va boshqa daromadidan quyidagicha undiriladi: ota-ona daromadining bir bola uchun 1/4 qismi, ikki bola uchun 1/3, uch va undan ortiq bola uchun yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to'lovlar miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvoli va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin. Sud tomonidan har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 26,5 foizidan kam bo'lmisligi kerak.

Bundan tashqari, ota-ona voyaga yetgan bolalarga ham aliment to'lashi shart. Bunga asos Oila kodeksi 100-moddasida keltirilgan. Unda "Ota-ona voyaga yetgan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berishi shartdir", deyilgan. Bunda aliment

miqdori sud tomonidan ota-onaning oilaviy va moddiy ahvolidan kelib chiqib, har oyda to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi.

Aliment O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida pul yoki natura tarzida olingan barcha turdagi daromadlardan ushlab qolinadi. Chet el valyutasida olinadigan daromadlar aliment undiriladigan kunda amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy kursi bo'yicha so'mda hisoblanadi.

Ota-ona aliment to'lashdan qachon ozod bo'ladi?

Agar voyaga yetmagan bola davlat yoki nodavlat muassasalarining to'liq ta'minotida bo'lsa, sud aliment to'layotgan ota yoki onaning moddiy ahvolini hisobga olib, to'lanayotgan aliment miqdorini kamaytirish yoki uni aliment to'lashdan

ozod qilish haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Aliment miqdorini kamaytirish yoki uni to'lashdan ozod qilish uchun asos bo'lgan holatlar tugaganda manfaatdor taraf aliment qonunda belgilangan miqdorda undirilishini talab qilib, sudga murojaat etishga haqli. Aliment miqdorini kamaytirish yoki aliment to'lashdan ozod qilish haqidagi da'volar FPK 33-moddasiga ko'ra, javobgar doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg'ul bo'lgan joydagi sudga beriladi.

Voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to'lash haqidagi sudning hal qiluv qarorini bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslar ushbu kodeksning 79-moddasiga asosan, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ota-onasiga moddiy yordam berish to'g'risidagi sudning hal qiluv qarorlarini bajarmaslik jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Mashhura SULTONOVA,
TDYU talabasi

Jazoni yengillashtiruvchi holatlar

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi shaxsning sodir etgan qilmishiga nisbatan jazo tayinlashda nafaqat jinoyatning og'irligi va oqibatlarini, balki jinoyatchining shaxsiy holatini ham hisobga oladi. Jinoyat kodeksining 55-moddasida jazoning yengillashtirilishiga asos bo'luvchi bir qancha omillar belgilangan bo'lib, ushbu omillar shaxsning jinoyat sodir etish sabablarini tushunish, adolatli jazo belgilash va jinoyatchining tuzalish ehtimolini oshirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, jinoyatchining aybini tan olishi, chin dildan pushaymon bo'lishi yoki tergov organlariga faol yordam berishi jazoning yengillashtirilishiga asos bo'lishi mumkin. Bu holatda sud shaxsning o'z qilmishidan saboq chiqarganini va adolatli jarayonga o'z hissasini qo'shganini hisobga oladi. Shuningdek, jinoyat natijasida yetkazilgan zararning ixtiyoriy ravishda qoplanishi ham muhim. Bu nafaqat jabrlanuvchining manfaatlarini tiklashga yordam beradi, balki jinoyatchining qilmishiga nisbatan mas'uliyat hissin ko'rsatadi.

Ikkinchidan, shaxs og'ir hayotiy sharoitlar ta'sirida yoki mushkul ahvolda jinoyat sodir etgan bo'lsa, bu holatda ham tayinlangan jazoni yengillashtirish mumkin. Masalan, oilaviy yoki moddiy muammolar tufayli og'ir ruhiy bosim ostida bo'lgan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sinchiklab o'rganib chiqiladi.

Uchinchidan, shaxsning jinoyat sodir etishga majburlangani yoki kimgadir qaramligi sababli bunday yo'l tutgani jazo yengillashtirishga sabab bo'ladi. Ji-

noyatni zo'rlik yoki tahdid ostida sodir etish, shuningdek, jabrlanuvchining no-qonuniy yoki axloqqa zid xatti-harakatlari ta'sirida jinoyat qilish holatlari ham sud tomonidan e'tiborga olinadi. Masalan, shaxs o'zini yoki boshqalarni himoya qilish chog'ida zaruriy mudofaa chegarasida yoki oxirgi zarurat tufayli harakat qilib, boshqa shaxslarning manfaatlariga zarar yetkazgan bo'lsa ham holatga yengillashtiruvchi omil sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, voyaga yetmagan shaxs yoki homilador ayol tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ham yengillashtiruvchi holatlar qatoriga kiradi. Aytaylik, voyaga yetmagan shaxs hali yetarli hayotiy tajribaga ega emasligi, hissiyotlarini to'liq boshqara olmasligi va oqibatlarini yetarli darajada anglay olmay jinoyatga qo'l urgan bo'lishi mumkin. Yoki xuddi shuningdek, homiladorlik holati ham sud tomonidan jazo belgilashda inobatga olinadi.

Muhimi shundaki, sud ushbu modda-da ko'rsatilmagan boshqa holatlarni ham yengillashtiruvchi omil sifatida baholash vakolatiga ega. Biroq, agar yengillashtiruvchi holat jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida Jinoyat kodeksining Maxsus qismida nazarda tutilgan bo'lsa, u jazo tayinlashda alohida hisobga olinmaydi.

Jazoni yengillashtiruvchi holatlarning mavjudligi adolatlilik tamoyilining muhim qismi hisoblanadi. Bunda har bir jinoyat alohida baholanishi lozim bo'lib, shaxsning ijtimoiy ahvoli va jinoyat sodir etish sabablariga chuqur yondashish jazoni adolatli belgilashga yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu tamoyillar insonparvarlik prinsiplariga asoslanib, jinoyatchilarning tuzalish ehtimolini oshirish va ularning ijtimoiy hayotga qaytishiga imkon yaratish maqsadida qo'llaniladi.

Shahboz MURTAZOYEV,
Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi talabasi



Maktub

Salom, janob Xeminguey!

“Chol va dengiz”ingizni yana qayta o‘qib chiqdim. To‘g‘risi, ilgari o‘qiganimda yaxshi e‘tibor bermagan ekanman. Bu safargi mutolaa avvalgisidan mutlaqo farq qildi. Go‘yo faqat Santyagoning taqdirini emas, butun insoniyat taqdirini hikoya qilgandeksiz.

“Chol va dengiz”ni o‘qimagan odam chol, dengiz, baliq va ovni shunchaki yuzaki tushunadi. Ya‘ni chol deganda mo‘ysafidni, dengiz deganda birorta dengizni, baliq deganda baliq turlarini, ov deganda esa nimadir ovlashni xayoliga keltiradi. Siz shu oddiy tushunchalarni hayot falsafasiga aylantira olgansiz. Shaxsan menda sakson to‘rt kunlik mashaqqat evaziga sakson beshinchi kuni qo‘lga kiritilgan natijalardan bir qanchasi bor: o‘n

o‘zgalarni anglash, tushunish shu qadar murakkabki, bu bevosita yashashimizga, idrok etishimizga xalaqit qilayotgandek go‘yo. Santyagoni anglash uchun hayotga teran nigohlar ila boqmoqlikning o‘zi kifoya. Eng katta kuch esa iroda va tafakkurdir. Aksar odamlarga esa, afsuski, Santyagoda bor iroda, ishonch, harakat, fikr, xulosa yetishmaydi.

Ovga chiqqan odamning yagona maqsadi – o‘lja! Orzu qilgan odamning yagona maqsadi esa orzusining ijobatidir. Orzu o‘z-o‘zidan ijobat bo‘lib qolmaydi. Buning uchun to‘g‘ri fikr, to‘g‘ri yo‘nalish, mustahkam ishonch talab etiladi. Hech kim senga ishonmaganda ham o‘zingga, o‘z kuchingga bo‘lgan ishonchni yo‘qotmaslik eng muhim omildir. Hayot dengizida milliardlab kemalar, kemalar ichida xuddi shuncha ovchilar bor. Orzu, maqsadlar dengiz tubida. Ular shunchaki kelib kemamizga tushib qolmaydi. Ularga intilmoq, erishmoq kerak. Erishilgandan so‘ng kimlardir tortib olsa ham bu tugadi degani emas. Hammasini qaytadan boshlash kerak. Boshlash uchun qayta tirilgan ishonch, xulosadan oziqlangan o‘tkir zehn kerak bo‘ladi.

Turkiylar Sibirdan Sharqiy Yevropagacha bo‘lgan ulkan jo‘g‘rofiy hududga yoyilgan qadimiy xalqlardan biridir. Geografik farqlar, tarixiy jarayonlar ularning qiyofasi, madaniyati va urf-odatlarini anchayin o‘zgartirgan. Mashhur olmon tilshunosi Vilhelm von Humboldt “*Sibirning chekka o‘rmonlarida yashovchi yoqut ovchi bilan Istanbuldagi turk savdogar bir-biridan juda uzoq va turmushi butunlay boshqacha. Ularni qanday qilib bir oraga keltirish mumkin?*” degan savolni o‘rtaga tashlaydi va yakunda “*turkiylarni birlashtirib turuvchi yagona va eng muhim unsur tildir*”, degan xulosaga keladi.

Haqiqatan ham, til turkiylar birligining asosiy omilidir. Ammo turli tarixiy jarayonlar va alifbo islohotlari turkiy xalqlarni bir-biridan lingvistik jihatdan ham biroz uzoqlashtirgan. Bu esa lug‘at tarkibining turlichalashishiga va o‘zaro anglashuvning kamayishiga sabab bo‘lgan.

Turk tilini o‘rganishni boshlagan ilk kunlarimdan beri bir gapni ko‘p eshitaman: “Turk tili va o‘zbek tili bir-biriga juda yaqin, uni qiynalmay o‘rgana olasan”. Xo‘sh, haqiqatan ham shundaymi?

To‘g‘ri, turk va o‘zbek tillari bir oilaga mansub, grammatik jihatdan bir-biriga yaqin, lug‘at tarkibi umumiy bo‘lgan tillardir. Ingliz, rus, nemis, xitoy tili kabi boshqa lisoniy oilaga mansub tillarga qaraganda turkchani o‘rganish bir qarashda ancha oson. Ammo bu umumiylik ba‘zan til o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga ham sabab bo‘lishi mumkin. Turk tilini o‘rganuvchilar duch keladigan asosiy qiyinchilik bu ikki tilda mavjud bo‘lgan shaklan bir xil, ammo ma‘nosi turlicha bo‘lgan soxta ekvivalentlardir. Turkiyaga sayohat qilgan yoki turk qardoshi bilan muloqotda bo‘lgan har vatandoshimizning bu “aldoqchi so‘z”lar bilan bog‘liq boshidan kechirgan qiziq hangomasi borligi aniq. Masalan, “zo‘r” so‘zi turkchada ham, o‘zbekchada ham bor. Ikki tilda ham bu so‘z kundalik muloqotda juda ko‘p ishlatiladi. O‘zbekchada “zo‘r” so‘zi “yaxshi, a‘lo, ajoyib” kabi ma‘nolarni anglatadi, turkchada esa “qiyin, murakkab, mushkul” degan ma‘noda keladi. Ikki tilni yaxshi bilmagan qardoshlar suhbatlashib qolsa biri-birini mutlaq noto‘g‘ri tushinishi mumkin.

Soxta ekvivalentlar, ayniqsa, tarjima sohasida anchayin murakkabliklarni tug‘diradi. Afsuski, so‘nggi paytlarda turkchani muloqot darajasida chala-chulpa o‘rganib, lug‘at varaqlamasdan yostiqlik kitoblarni o‘g‘irishga chog‘langan “tarjimonlar” ham ko‘payib qoldi. Kitob do‘konlari rastalarigacha borishga ulgurigan turk tilidan qilingan ba‘zi tarjimalarda bu kabi xatolar ko‘zga botadi. Tilni yaxshi bilmagan tarjimonlarning “aldoqchi so‘zlar”ga aldanganiga ko‘p guvoh bo‘lamiz. Tarjimadagi birgina so‘zning noto‘g‘ri o‘g‘irinishi, butun bir asar mazmuniga ta‘sir qilishi barhamizga ma‘lum. Shu sabab ham til o‘rganishda soxta ekvivalentlarga e‘tiborli bo‘lish muhim.

Keling, turk tili va o‘zbek tili orasidagi “aldoqchi so‘z”larning ba‘zilarini ko‘rib chiqamiz:

1. Axtarmoq – Aktarmak.

O‘zbekcha: qidirmoq, izlamoq.

Turkcha: bir narsani bir yerdan yoki idishdan boshqa yerga o‘tkazmoq, jo‘natmoq, yubormoq, to‘kmoq.

2. Bekor – Bekar.

O‘zbekcha: ishdan xoli, ishi yo‘q; bo‘sh, ishsiz, beish.

Turkcha: uylanmagan yoki turmushga chiqmagan, bo‘ydoq.

3. Bobo – Baba.

O‘zbekcha: otaning yoki onaning otasi(nabiraga nisbatan).

Turkcha: ota, padar.

VA NIHOYAT SIYLADI XOLIQLI!

(Ernest Xemingueyga maktub)

besh yil talaba bo‘lish orzusi ila oliy o‘quv yurtlariga ketma-ket tanaffussiz imtihon topshirganman. O‘n besh yil umidsizlik, ishonchsizlik ta‘sirida yashaganman. Ammo hech qachon ortga chekinmaganman. Chunki eng og‘ir va kechirib bo‘lmas xiyonat – orzuga, maqsadga xiyonatdir. Agar o‘sha damlarda orzumga xiyonat qilib ortga chekinganimda, talaba bo‘lishdek maqsadimdan voz kechganimda, taqdirning shafqatsiz qasosiga duchor bo‘lishim tayin edi. Bilasizmi, keyin meni nima kutardi? Ilmsizlik, qorin g‘ami va ikki chaqa uchun changga botib yuradigan, kelajagini o‘z qo‘li bilan barbod etgan insonga qismatdoshlik va safdoshlik!

Janob Xeminguey! Biz o‘zbeklarda “Oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘” degan gap bor. Ammo sizning sakson beshinchi kuningizdan mutlaqo farq qiladi. Sizning sakson beshinchi kuningizga yetib olish uchun nafaqat sabr, balki kurash, ortga chekinmaslik, harakat ham bor: eng og‘ir kurash – o‘zing bilan kurash, eng alamli mag‘lubiyat – o‘zingni yengolmaslik, eng yoqimli g‘alaba – o‘zingni yengishdir.

Chol – men, dengiz – hayot, qayiq – maqsadlarim sari undovchi kuch, baliq – maqsadim, bo‘ronlar – meni chalg‘itishga urinadigan omillar, ya‘ni sinovlardir. Qahramoningiz Santyago nihoyat baliqni tutib uyiga qaytayotganda akulalar hujumiga duch keladi va qirg‘oqqa yetib borguncha baliqning suyagidan bo‘lak hech vaqo qolmaydi. Hayot ham shunday. Biz tomonlarda bu vaziyatga “Tayyorga ayyor” deb ta‘rif berishadi. Kimdir yillar davomida izlanadi, mehnat qilib nimagadir erishadi. Ammo erishilgan o‘sha nimagadir da‘vog‘arlar chiqib qoladi. Atrofimiz to‘la akulalar. Ularning ham hayotda o‘z missiyasi bor, bizning ham. To‘g‘ri, e‘tirozli fikrlar ham yo‘q emas:

– Og‘zingdagi oshni oldirib qo‘yib, jim qarab turaverasanmi? Axir unga erishish uchun joningni jabborga berding-ku!

Lekin men uchun bu muhim emas. Muhimi, orttirilgan tajriba, kerakli xulosalardir. O‘sha tajriba va xulosalar navbatdagi ov jarayonlarida asqatadi.

Janob Xeminguey! Hayot – murakkab emas. Uni o‘zimiz murakkablashtirib yuboryapmiz. O‘zimiz va

Barcha davrlarda sevimli kitob

Ernest XEMINGUEY

CHOL VA DENGIZ



Janob Xeminguey!

Yashirmayman, to‘g‘risi, Santyagoga achindim. Bo‘g‘zimga nimadir tiqildi. Xayolimga sizga e‘tiroz bildirish fikri ham keldi:

– Bechora cholga nahotki achinmadingiz? Uning aybi nima? Axir sakson to‘rt kun oz muddat emas-ku? Qiynalib-qiynalib endi baliq tutdim deganda nega uni akulalar bilan to‘qnashtirdingiz? Hammasi o‘z qo‘lingizda edi-ku, sho‘rlikka achinsangiz bo‘lardi...

Ammo darhol bu fikrimdan qaytdim. Siz to‘g‘ri qilganingizni, to‘g‘ri yozganingizni anglash uchun menga biroz vaqt kerak bo‘ldi. Chunki kundan kunga noziklashib borayotgan jamiyatimizga Santyagolar kerak, judayam kerak.

Janob Xeminguey! Maktubim so‘ngida butun insoniyat uchun yozilgan “Chol va dengiz”ingiz uchun sizga cheksiz minnatdorligimni izhor etaman. Asaringiz asrlar davomida ko‘ngil mulki, tafakkur yog‘dusi bo‘lib xizmat qilishiga ishonchim komil. Ijozatingiz bilan mutolaadan ta‘silanib yozgan mazkur she‘rimni e‘tiboringizga havola etsam:

Hayot – dengiz, men esa cholman,

Orzumdir – tutilgan baliq.

Sakson to‘rt kun mulzamman, lolman,

Va nihoyat siyladi Xoliql!

Santyago – ayni o‘zimdir,

Ko‘p jihatdan o‘xshayman unga.

Sabrim so‘ngi – rizq-u ro‘zimdir,

Yetsam sakson beshinchi kunga.

Akulalar chiqib yo‘limdan,

Bisotimni olsa qo‘limdan.

Menda qolgay xulosa, ilm,

Zig‘ircha ham og‘rimas dilim.

Hayot shunday, raqiblarim shum,

Tushdim turli-tuman ko‘yga men.

She‘rim tamom, tashakkur aytgum,

Janob Ernest Xemingueyga.

Cheksiz hurmat ila Nizomiddin MADRAHIMOV,
O‘zJOKU talabasi

“ALDOQCHI SO‘ZLAR”GA ALDANMANG!

4. Dada – Dede.

O‘zbekcha: ota, padar.

Turkcha: bobo, buva.

5. Tushunmoq – Düşünmek.

O‘zbekcha: biror narsaning ma’nosi, mazmuni, mohiyati yoki sabablarini aql bilan anglab yetish, idrok etish va fahmlash jarayoni.

Turkcha: o‘ylamoq, mulohaza yuritmoq.

6. Gul – Gül.

O‘zbekcha: yopiq urug‘li o‘simliklarning urchish uchun xizmat qiladigan gulband, kosachabarg, tojibarg, changchi va urug‘chilardan iborat qismi.

Turkcha: atirgul.

7. Hovli – Havlu.

O‘zbekcha: biror oila, xo‘jalik, tashkilotga tegishli joyning imorat qurilmagan, odatda, atrofi o‘ralgan qismi.

Turkcha: sochiq.

8. Hovuch – Havuç.

O‘zbekcha: ikki qo‘lning kaft va barmoqlarini yonma-yon birlashtirib, barmoqlarni bukib, chuqurcha qilingan holat.

Turkcha: sabzi (sabzavot turi).

9. Iflos – İflas.

O‘zbekcha: kirli, nopok, bulg‘angan.

Turkcha: sud qarori bilan qarzini to‘lashga qodir emasligi, to‘lash layoqatsizligi, bankrotligi aniqlangan va e‘lon qilingan tadbirkorning ahvoli.

10. Kalit – Kilit.

O‘zbekcha: qulfni ochish yoki berkitish uchun ishlatiladigan metall asbob.

Turkcha: qulf.

11. Kira – Kira.

O‘zbekcha: biror joyga borish yoki biror yukni olib borib berish uchun arava, mashina yollash, yollanish.

Turkcha: uy-joy, mol-mulk yoki biror narsadan foydalanish uchun to‘lanadigan haq, ijara haqi.

12. Karovat – Kravat.

O‘zbekcha: to‘rt oyoqli, ustiga ko‘rpa-to‘shak solib yotiladigan uy-ro‘zg‘or anjomi.

Turkcha: bo‘yinbog‘.

13. Pora – Para.

O‘zbekcha: lavozimli kishiga biror ishni noqonuniy bitirib olish uchun berilgan narsa yoki pul.

Turkcha: naqd pul, davlat tomonidan bosilgan qiy-mati bo‘lgan qog‘oz yoki metall to‘lov vositasi.

14. Qiliq – Kılık.

O‘zbekcha: kishining yurish-turishidagi, boshqalar bilan muomalasidagi o‘ziga xos harakatlari, xulq-atvori.

Turkcha: bir kishining kiyinishi, tashqi ko‘rinishi, qiyofa, ust-boshi.

15. Sayr qilmoq – Seyretmek.

O‘zbekcha: 1. Sayr qilmoq – osuda yerlarda, oromgoh, sayilgohlarda aylanib yurish, tomosha qilish, orom olish. 2. Sayratmoq – sayramoq so‘zining ortirma nisbat shakli.

Turkcha: bir narsaning holatini, shaklini ko‘rmoq, tomosha qilmoq.

16. Sovchi – Savcı.

O‘zbekcha: uylanuvchi yigit tomonidan biror xonadonning voyaga yetgan qizini ko‘rish va uni kelin qilishga rozilik so‘rash uchun vakil qilingan kishi.

Turkcha: qonun, davlat nomidan va manfaati uchun sudda da’vo qo‘zg‘atuvchi, jamoat huquqlari va qonunni bajarish uchun, sudya oldida sudlanuvchilarni javobgarlikka tortuvchi mansabdor shaxs, ya’ni prokuror.

17. Tinch – Dinç.

O‘zbekcha: g‘ala-g‘ovur, shovqin-suron, to‘s-to‘polondan xoli.

Turkcha: kuchi va sog‘lig‘i joyida, jonli, baquvvat, mehnatsevar, har tomonlama rivojlangan.

18. Tuman – Duman.

O‘zbekcha: atmosferaning quyi qatlamlarida yuzaga keladigan mayda suv yoki muz zarralari.

Turkcha: bir moddaning yonishi natijasida ajrab chiqadigan, tarkibida qattiq zarralar va bug‘ bo‘lgan turli rangdagi gaz, ya’ni tutun.

19. Atama – Atama.

O‘zbekcha: termin, maxsus nom.

Turkcha: atash ishi, biror vazifaga tayinlash.

20. Pul – Pul.

O‘zbekcha: mablag‘.

Turkcha: 1. Pochta markasi. 2. Kiyimdagi yaltiroq bezak plastinkacha. 3. Baliq tangachasi. 4. Kichik metall tanga.

21. Ortiq – Artık.

O‘zbekcha: ziyoda, keragidan ortiq.

Turkcha: 1. Ovqat yoki foydalanishdan qolgan qoldiq. 2. Bundan buyon, endi. 3. Ko‘p, ziyoda.

22. Ozmoq – Azmak.

O‘zbekcha: vazn yo‘qotmoq, zaiflashmoq.

Turkcha: 1. Haddidan oshish, yomonlikni orttirish. 2. Daryo yoki dengizning toshishi. 3. Jarohat yoki kasallikning og‘irlashishi.

23. Taqdir – Takdir.

O‘zbekcha: qismat, peshona yozuvi.

Turkcha: 1. Munosib baho bermoq, maqtash, qadrlash. 2. Qiymatini anglash. 3. Ilohiy iroda.

24. Toza – Taze.

O‘zbekcha: pokiza, ozoda, kir bo‘lmagan.

Turkcha: 1. Buzilmagan, yangi uzilgan, barra. 2. Yosh, eskirmagan.

25. Xat – Hat.

O‘zbekcha: maktub, yozma xabar.

Turkcha: 1. Chiziq. 2. Yozuv uslubi. 3. Yo‘l yoki yo‘nalish. 4. Telefon yoki elektr simi tizimi.

26. Tekin – Tekin.

O‘zbekcha: bepul, haq to‘lanmaydigan.

Turkcha: 1. Bo‘sh, ichida hech kim yo‘q. 2. Omadli, xayrli. 3. Ishonchli, shubhali bo‘lmagan.

27. Dovul – Davul.

O‘zbekcha: kuchli shamol, bo‘ron.

Turkcha: Ikki tomoni teri bilan qoplangan, to‘qmoq bilan chalinadigan musiqa asbobi (bu variant o‘zbek tilida ham bor).

28. Uzmoq – Üzmek.

O‘zbekcha: kuch bilan tortib ajratmoq, qo‘pormoq.

Turkcha: 1. Xafa qilmoq, dilini og‘ritmoq. 2. Tortib cho‘zmoq, qiynamoq.

29. Tutun – Tütün.

O‘zbekcha: biror narsa yonganda havoga ajralib chiqadigan mayda zarralardan iborat gazsimon moddalar majmuyi.

Turkcha: tamaki o‘simligi va uning chekiladigan quritilgan bargi.

30. Turmoq – Durmak.

O‘zbekcha: oyoqda tik turish.

Turkcha: to‘xtash, harakatni to‘xtatish, bir joyda qolish.

31. Topmoq – Tapmak.

O‘zbekcha: yo‘qotilgan narsani ko‘rib qolmoq, topib olmoq.

Turkcha: 1. Ibadat qilish, sig‘inmoq. 2. Biror narsani haddan ortiq sevisht.

32. Tortmoq – Tartmak.

O‘zbekcha: o‘ziga qaratib kuch bilan tortish.

Turkcha: 1. Vaznini o‘lchash. 2. O‘ylab ko‘rish, chamalash.

33. Sig‘inmoq – Sığınmak.

O‘zbekcha: ibodat qilish, topinish, sig‘inmoq.

Turkcha: 1. Xavfdan qochib panoh topish. 2. Kimningdir yordamiga yoki himoyasiga suyanish.

34. Sumak – Sumak.

O‘zbekcha: beshik naychasi.

Turkcha: qizil rangli achchiq-nordon ziravor turi.

35. So‘ymoq – Soymak.

O‘zbekcha: bo‘g‘izlash, o‘ldirmoq.



Turkcha: 1. Po‘stini artish. 2. Kiyimni yechish. 3. To‘nab ketish, o‘g‘rilik qilish.

36. So‘kmoq – Sökmek.

O‘zbekcha: haqoratlash, yomon so‘zlar bilan urushish.

Turkcha: 1. Joyidan sug‘urib olish. 2. Tikilgan narsani ochish. 3. Qiyin yozuvni o‘qish.

37. Sindirmoq – Sindirmek.

O‘zbekcha: parchalash, maydalamoq, sindirish.

Turkcha: 1. Ovqatni hazm qilish. 2. Og‘ir gapni yoki mag‘lubiyatni tan olish(yutish). 3. Biror narsani singdirish.

38. Qalin – Kalın.

O‘zbekcha: kelin uchun beriladigan haq yoki mol(qalin puli).

Turkcha: yo‘g‘on, zich, ingichka bo‘lmagan.

39. O‘tmoq – Ötmek.

O‘zbekcha: bir joydan harakatlanib o‘tib ketish.

Turkcha: 1. Qushlarning sayrash. 2. Hushtak yoki cholg‘u ovoz chiqarishi.

40. Kutmoq – Gütmek.

O‘zbekcha: poylash, intizor bo‘lib kutish.

Turkcha: 1. Chorvani boqish, haydash. 2. Biror maqsad yoki fikr ortidan borish.

41. Kelishmoq – Gelişmek.

O‘zbekcha: bitimga kelishish, kelishuvga erishish.

Turkcha: o‘smoq, rivojlanish, taraqqiy etish.

42. Atamoq – Atamak.

O‘zbekcha: nom qo‘yish, ism bermoq.

Turkcha: biror kishini lavozimga tayinlash.

43. Izlam oq – İzlemek.

O‘zbekcha: qidirmoq, axtarmoq.

Turkcha: 1. Kuzatmoq, tomosha qilish. 2. Biror narsaning ortidan borish.

44. Kavak – Kavak.

O‘zbekcha: teshik, bo‘shliq, g‘ovak.

Turkcha: terak daraxti.

Ikki til orasidagi bu kabi soxta ekvivalentlar – “aldoqchi so‘zlar”ning barchasini sanay desak yana uzoq davom etishimiz mumkin.

Yurtimizda turk tili, madaniyati va san’atiga bo‘lgan qiziqish yil sayin ortib bormoqda. Ikki qardosh millat orasidagi aloqalarning kuchaygani, mamlakatlarda bordini-keldining ko‘paygani ham turk tilini o‘rganishga bo‘lgan rag‘batni oshirmoqda. Bunga parallel holda turkcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-turkcha sifatli lug‘atlar, tillar orasidagi o‘xshashlik va farqlar tadqiq qilingan kitoblarga ehtiyoj ham ortmoqda. Shu sabab ikki tildagi shakli bir xil, ammo ma’nosi turlicha bo‘lgan “aldoqchi so‘z”lar lug‘ati yaratilsa, qardoshlarga muloqotning yanada yaxshilanishiga katta hissa qo‘shilgan bo‘lar edi.

Izoh:

O‘zbek tilidagi so‘zlarning izohi uchun “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”(2022), turk tilidagi so‘zlar uchun esa Türk Dil Kurumu(2023) Türkçe Sözlük(12. baskı) va <https://sozluk.gov.tr> saytidan foydalanildi.



Fikr

BIZ FAQAT O'ZIMIZ EMASMIZ

Har birimiz asrlar davomida shakllangan ulkan oila daraxtining kichik, ammo muhim bir bargimiz. Haqiqat shuki, barg o'zini daraxt deb o'ylasa, ildizsiz quriydi.

Ildizlar ko'rinmaydi. Ular tuproq ostida, qorong'ulikda yashaydi, ammo aynan shu ildizlar daraxtni ushlab turadi. Xuddi shunday, ajdodlarimiz ham biz ko'rmaydigan, lekin hayotimizni mustahkam tutib turadigan kuchdir.

Hech e'tibor berganmisiz: ba'zida yuragingiz siqiladi, ammo sababini anglay olmaysiz. Ayrim qo'rquvlar sizga begona bo'lsa-da, ichingizda yashaydi. Ba'zi orzular esa sizniki emasdek tuyuladi, lekin sizni tark etmaydi. Chunki siz faqat o'zingiz emassiz. Ichingizda kimdir urushdan qaytmagan. Kimdir muhabbatini yo'qotgan. Kimdir ocharchilik davrida oxirgi nonini bo'lishgan. Kimdir sukut bilan yashab, dardini ichiga yutgan. Va siz ularning davomisiz.

Epigenetika yo'nalishidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson boshidan kechirgan iztiroblar, qo'rquv va tajribalar genetik belgilar orqali keyingi avlodlarga o'tishi mumkin. Demak, sizning jasoringiz yoki ichki xavotiringiz ham faqat bugungi kun mahsuli emas. Bu meros sizga asrlar osha o'tib kelmoqda.

Xalq orasida keng tarqalgan "Yetti avlodningni bil", "Bittasi buzuq bo'lsa, hammasi buzuq" degan hikmatlar bejiz emas. Yaqin o'tmishda bolalar o'z shajarasini sanab bera olmaganidan uyalgan, hatto masxara qilingan. Bugun esa ko'pchiligidan o'zimizni ham yetarlicha tanimaymiz. Ildizsiz yashashga o'rganib qoldik. Balki shuning uchun ham ichimizda izohlab bo'lmaydigan bo'shliq mavjuddir. Bolaligimda maktab darsligida: "Inson o'z tarixini bilmasa, kelajagi yo'q", degan jumlaning o'qigan edim. Bugun esa uning mazmunini chuqurroq angelayapman. Hatto tarix davomida urushlarda ham "xalqning tarixi, dini va tilini yo'q qilsak, uni bo'sundirish oson bo'ladi", degan g'oya ilgari surilgan.

Tadqiqotlardan ma'lumki, o'z oilasi tarixini yaxshi bilgan insonlar hayot zarbalariga bardoshliroq bo'ladi. Ular kamroq sinadi, ichki mustahkamlikka ega bo'ladi. Masalan, BBC Newsda e'lon qilingan bir xitoylik yigitning hikoyasi meni chuqur o'ylantirgan edi. U shunday deydi: *"Men ko'pincha bobomni eslayman. U 1915-yili Xitoyning kichik bir qishlog'ida kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan. Ammo qishlog'ida universitetga o'qishga kirgan birinchi inson bo'lgan. Bu oddiy yutuq emas, balki o'z davri uchun katta jasorat edi"*.

Bobosi jurnalist sifatida siyosiy tizimga qarshi fikr bildirgani uchun qamoqqa tashlangan, og'ir mehnat lagerlarida yashagan. Urushlar va "madaniy inqilob" uning hayotini sindirmoqchi bo'lgan, lekin u sinmagan. U yashab qolgan va hayotini davom ettirgan. Xuddi shunday, onasi ham 1989-yili Xitoyni tark etib, Buyuk Britaniyada o'qishni davom ettirish uchun katta jasorat ko'rsatgan. U ham o'z hayotini o'zgartiradigan qaror qabul qilgan. Yigit *"Bobom va onamning hayotini o'ylaganimda, bir savol meni tark etmaydi: agar u o'sha payti qo'rquvni tanlaganida, bugun mening hayotim qanday bo'lar edi? Chunki mening mavjudligim uning qarorlariga bog'liq"*.

O'z tarixini o'rganish har doim ham oson emas. Ba'zi oilalarda og'riq, ruhiy jarohat va murakkab o'tmish yashirin bo'ladi. Biz tugamaydigan hikoyaning bir bo'lagimiz. Ajdodlarimizning jasorati, qo'rquvi, xato va g'alabalari bizning ichimizda yashaydi. Va ehtimol eng muhim haqiqat ham shu: biz faqat o'z hayotimizni emas, balki avlodlar davom ettiradigan hikoyani ham yashayapmiz.

Olimlar buni ikki yo'l bilan tushuntiradi. Birinchisi – ona homiladorlik davrida boshdan kechirgan stress. Agar ona qo'rquv, xavotir yoki og'ir ruhiy bosim ostida yashasa, bu bolaning ichki rivojlanishiga ta'sir qiladi. Bola hali tug'ilmasidan oldin uning organizmi "dunyo xavfli bo'lishi mumkin" degan signalni qabul qilishi ehtimoldan xoli emas.

Ikkinchisi esa tug'ilgandan keyingi muhitdir. Agar ota yoki ona og'ir ruhiy jarohat ko'rgan bo'lsa, ularning harakatlari, jimligi, qo'rquvi yoki xavotiri bolaga ham o'tadi. Bola buni so'z bilan emas, his orqali o'rganadi.

Tarixga nazar tashlasak, ikkinchi jahon urushi, qirg'inlar va katta fojialarni boshdan kechirgan insonlarning farzandlari ustida olib borilgan kuzatuvlarda, ularda hech qanday aniq sabab bo'lmasa ham ichki xavotir, qo'rquv va stressga tez tushish holatlari kuzatilgan. Bu holat nafaqat urush qatnashchilarida, balki zo'ravonlik, qiyin kechgan bolalik yoki og'ir hayot kechirgan ota-onalarning farzandlarida ham uchragan.

Ammo inson o'z hayotida yangi tajribalar orqali ichki tizimini qayta shakllantira oladi. Ya'ni og'riq uzatilishi mumkin, lekin uni to'xtatish ham mumkin.

Bizdan oldingi insonlarning kurashi, qo'rquvi va jasorati bizning ichimizda yashaydi. Bu ba'zan og'irlik qilishi, ba'zan esa kuch berishi mumkin. Chunki inson o'z tarixini tushuna boshlaganda, u o'zini ham boshqacha anglay boshlaydi.

Orasta ABDULLAYEVA,
O'zJOKU talabasi

Kechinma

Qahraton qish o'z hukmini o'tkazayotgan bir payt... Harorat -2°. Sovuq shu darajada kuchliki, ko'chada yurib bo'lmaydi. Ishdan qaytayapman... Metrodan chiqishim bilan ko'chadagi muzdek havo "gup" etib dimog'imga urildi. Ko'chada: svetofo "oq yo'l"ini kutayotgan besabr piyodalar, hassasini do'qillatib metroga qadam tashlayotgan keksa otaxonlar-u, o'qish, ish yoki boshqa yumushlarini tamomlab uylariga qaytayotgan oddiy shahar aholisi... Atrofni kuzatarkanman, ko'zim beixtiyor metroning yonginasida qo'llari qizargan, sovuqda kaftini "kuflab" isitib, u yoqdan bu yoqqa yurayotgan non sotuvchi amakiga tushdi. Sovqotgani yuzidan shundoqqina sezilib turardi. Bolaligim xayollarimga yopirildi...

QAHRATONDAGI QAYNOQ MEHR TAFTI

Onam maktabda farrosh bo'lib ishlardi... O'quvchilar ketganidan so'ng xonalarni supurib, pollarni yuvib uyga qaytardi. U vaqtlari men ota-onamning vaziyatini hecham tushunmagan bo'lsam kerak. Bizga qayerdan, qanday osh-ovqat kelishi, xursandchiligimiz ularning mehnati, mashaqqati evaziga ekanligini hech o'ylab ko'rmaganman. Otam mardikorlikdan topgan pullari evaziga halol luqma bilan oilamizni tebratgan. Biz – 5 farzandini hech kimdan kam qilmadi. "Qiynaldik, charchadik" deganlarini eslolmayman ham. Endi o'ylasam...

Qish kunlari bizni issiqqina uyga o'tqizib, o'zi muzdek suvda sinf pollarini yuvgan onajonim-a, yozning qaynoq chillasida tinim bilmay ter to'kib, beton, g'ishtlarni quyib, "biz o'qiyolmadik, farzandlarim o'qisin, ular bizdek qiynalishmasin" deb yelib-yugurgan otajonim... O'sha vaqtlari ota-onamga qanchalar qiyin bo'lganini, biz o'yinqaroqlikda o'tkazgan bir kunimizni ular ming mashaqqat bilan o'tkazganlarini bilmagan beg'ubor bolaligim... Esiz, o'sha vaqtlari sizlardan juda ko'p narsa olib berishingizni so'rashimiz va ularning eng yaxshilarini muhayyo qilishlaringiz... Endi ulg'ayib, hayotni ko'rib, angelayapmanki, ota-onamga hech qachon oson bo'lmagan. Hozir ham oson emas...

– To'rtta non – o'n ming so'm, keling, opa.
– Aka, issiqqina non oling, uyingizga olib keting, uchtasi o'n ming so'm...

Non sotuvchi amaki goh u tomonga, goh bu tomonga qadam tashlab, qo'lini og'ziga tutgan-cha "kuf-kuflab" isitardi. Garchi non olishim unchalik zarur bo'lmasa-da, bu savdodan tushadigan pul unga qanchalik kerakligini his qildim.

Uning ham jo'jabirdek farzandlari "Dadam bugun bizga nima olib kelarkan?" deb kutishayotgandir?!

– Assalomu alaykum, menga ham ikkita bering, aka, – dedim qo'llarimni cho'ntagimdan chiqararkanman.

– Issiqqina, yumshoq nonlarimiz bor, to'rtta ola qoling, singlim, – dedi nonlarni paketga joylar ekan, iltijoli jilmayib.

– Yaxshi, unda bering, – deya pulni qo'llariga tutqazdim.

– Rahmat, singlim, osh bo'lsin, – xursand bo'lib minnatdorlik bildirdi amaki.

– Rahmat, salomat bo'ling! – dedim jilmayib.

Asta-sekin non atrofida odamlar ko'paya boshladi. Har kim o'z navbatida:

– Menga ikkita.

– Menga to'rtta...

Issiq nonlarni quchoqlab uyimga qaytar ekanman, o'tayotgan kunlarimga bir nazar tashladim. Biror muvaffaqiyatga erishsak, "G'olib bo'ldim, o'qishga qabul qilindim", "Ishga joylashdim, o'zimga shaxsiy mashina xarid qildim", "Endi 4 xonali uy egasiman", deb maqtanar ekanmiz-u, lekin muvaffaqiyatlarimizning asl sababchilari kimlar ekanligini unutib qo'yarkanmiz!

Asl sababchilarimiz sovuqni sovuq, issiqni issiq demay, "Faqat farzandlarimga bo'lsin, hech kimdan kam bo'lmay o'ssin, qiyinchilik ko'rmasin" deb erta-yu kech mehnat qilgan otalarimiz, "Bolamning omadini bergin, Ollohim!" deya qo'llari duoda bo'lgan onajonlarimizdir. Hammasi uchun rahmat, otajonim, onajonim!

Muqaddam SA'YDULLAYEVA,
O'zJOKU talabasi

TAQDIRNING ISHI – HAQDIR

Asli Qozog'istondanman. O'zbekistonda o'qiyman, odatda uyga bir-ikki haftada bir borib kelaman. Shunday kunlarning birida chegaraga qatnaydigan taksigaga o'tirdim. Odam to'lmay, ikki soat kutib qoldim. Kun ham asta-sekin qoraya boshladi. Onam qo'ng'iroq qilib, "bo'ldi, ortga qayta qol" dedi. Ammo ichimda bir ovoz "olg'a" deb turgandek edi.

Surishtirsam, Yunusoboddan 477-avtobus chegaraga borar ekan. Shu avtobusga chiqib oldim. Yo'lda yoshi oltmishdan oshgan, xushbichim bir ayol bilan suhbatlashib qoldim. Xolaning aytishicha, janozaga ketayotgan ekan. Shosha-pisha uydan chiqib, avtobusga chiqaman deb faqat karta olibdi. Ammo aksiga olib, avtobus faqat naqd pul olar ekan.

– Hechqisi yo'q, men to'layman, – dedim. Duo qildi. Juda xursand bo'ldim. Ba'zan arzimaz kichik bir yaxshilik insonni qanchalik baxtli qilishi mumkinligini yana bir bor his qildim.

Aslida xola indamay tushib ketishi ham mumkin edi – hech kim bilmasdi. Ammo undagi halollik, rostgo'ylik bunga monelik qilgan bo'lsa ne ajab.

Tez to'lib ketadigan taksiga nega odam kelmagani endi tushundim – taqdir bizni aynan o'sha avtobusda uchrashtirishni xohlagandir, balki.

Hayotdagi eng oddiy holatlar ham ba'zan insonga saboq bo'ladi. Yaxshilik qilish, halol bo'lish – insonning ziynati, aynan shu fazilatlar hayotimizni yanada go'zallashtiradi.

Nodirabegim TOSHEVA,
O'zJOKU talabasi

Kun mavzusi

Sunʼiy intellekt taʼlim tizimi uchun zararmi?



Insoniyat sivilizatsiyasi bugun misli koʻrilmagan texnologik burilish nuqtasida turibdi. Kechagina oddiy hisob-kitoblar va maʼlumotlarni saralash bilan cheklangan kompyuter texnologiyalari bugun sunʼiy intellekt darajasiga yetdi.

Tabiiyki, ushbu global evrilish zamonaviy jamiyatning poydevori hisoblangan taʼlim tizimini ham chetlab oʻtma-di. Bugun bogʻcha, maktab va oliy taʼlim muassasalarida neyrotarmoqlar hamda smart-platformalardan foydalanish shunchaki qiziqish emas, balki kundalik ehtiyojga aylanib boryapti. Biroq taʼlim tizimiga sunʼiy intellektning bunday shiddatli kirib kelishi oʻzaro qarama-qarshi fikrlarni ham uygʻotmoqda. Bu texnologiya taʼlim sifatini yangi bosqichga olib chiquvchi najotkormi yoki yosh avlodni tayyor maʼlumotlar isteʼmolchisiga aylantiruvchi xavfli vosita?

Dastlab sunʼiy intellektning zamonaviy taʼlim tizimiga keltirayotgan foydalariga toʻxtalib oʻtsak. Uning taʼlimdagi eng ulkan inqilobi – har bir oʻquvchi va talabaga individual yondashish imkoniyatini yaratganidir. Anʼanaviy taʼlim tizimi uzoq davrdan beri “hamma uchun bir xil standart” tamoyili asosida ishlab kelgan. Vaholanki, har bir insonning fanni oʻzlashtirish tezligi, xotira quvvati va dunyoqarashi turlicha. Sunʼiy intellekt asosida ishlaydigan dasturlar esa har bir taʼlim oluvchining kuchli va zaif tomonlarini bir necha daqiqada aniqlab, aynan uning oʻzlashtirish tezligiga mos keladigan shax-

siy oʻquv dasturini shakllantirib bera oladi. Bu esa oʻz-oʻzidan oʻzlashtirish koʻrsatkichlarini bir necha barobar oshiradi. Bundan tashqari, u eng qimmatli resurs – vaqtni tejash imkonini berdi. Avvallari talaba yoki oʻqituvchi biror mavzu yuzasidan eng ishonchli maʼlumotni topish uchun oʻnlab kitoblarni, ilmiy toʻplamlarni titib, kunlab vaqt sarflagan boʻlsa, bugun zamonaviy chat-botlar va neyrotarmoqlar dunyodagi eng yirik raqamli kutubxonalardan kerakli xulosani soniyalar ichida saralab, tizimlashtirib bera oladi. Bu esa yoshlarga quruq maʼlumot yigʻish bilan emas, balki tayyor maʼlumotni chuqur tahlil qilish, undan amaliyotda foydalanish va ijodiy loyihalar ustida ishlashga koʻproq vaqt ajratish imkonini taqdim etmoqda. Shuningdek, oʻqituvchilar uchun ham dars rejalarini tuzish, test variantlarini tayyorlash, baholash tizimini shaffof va inson omilisiz tashkil etishda sunʼiy intellekt yaqin yordamchiga aylandi.

Tanganing ikkinchi tomoni ham bor. Sunʼiy intellektga taʼlim tizimida haddan tashqari koʻp oʻrin berishning jiddiy zarar va xavflari ham mavjud. Ushbu muammo-ning eng asosiysi – akademik dangasalik hamda mustaqil va tahliliy fikrlash qobiliyatining tobora soʻnib borishidir. Bugungi kunda maktab oʻquvchilaridan tortib universitet talabalarigacha mustaqil ravishda insho yozish, masalalar yechish yoki loyihalar tayyorlash oʻrniga, tayyor topshiriqlarni sunʼiy intellekt zimmasiga yuklamoqda. Tayyor, tez va oson yechimlarga oʻrganib qolgan inson miyasi vaqt oʻtishi bilan qiyinchiliklardan qochadigan, chuqur mulohaza yurita olmaydigan va ijodkorlikdan mahrum boʻlgan “passiv isteʼmolchi”ga aylanadi. Agar yoshlar hamma narsani texnologiya yordamida bajarsa,

ertaga real hayotiy va iqtisodiy muammolar qarshisida mutloq ojiz qolib ketishlari hech gap emas.

Ikkinchi jiddiy xavf – bu taʼlim tizimidagi emotsional intellektning, insoniy munosabatlar va maʼnaviy tarbiya-ning yoʻqolib borishidir. Maʼlumki, chinakam taʼlim jarayoni faqatgina maʼlumot va qoidalarni miyaga joy-lashdan iborat emas. Haqiqiy dars – ustoz va shogird oʻrta-sidagi jonli muloqot, qizgʻin bahs-munozaralar, jamoada jipslashib ishlash hamda eng muhimi, maʼnaviy-axloqiy tarbiya zanjiridir. Taʼlim tizimining toʻliq raqamlashib ketishi his-tuygʻulardan mosuvo, robotlashgan muhitni va jamiyatdan uzilgan ijtimoiylashmagan avlodni yuzaga keltirishi mumkin.

Xoʻsh, ushbu global chorrahada zamonaviy taʼlim tizimi qanday yoʻl tutishi kerak? Albatta, sivilizatsiya va taraqqiyot gʻildiragini ortga qaytarib boʻlmaydi. Sunʼiy intellektni inkor etish – zamondan uzilib qolish bilan baro-bardir. Eng toʻgʻri va oqilona yoʻl – taʼlim jarayonida oltin muvozanatni saqlash, yaʼni sunʼiy intellektdan maqsadli va faqat yordamchi vosita sifatida foydalanish madaniya-tini shakllantirishdir.

Pedagoglar talabalarga texnologiyadan shunchaki tayyor javob olishni emas, balki unga toʻgʻri savol berishni (prompt muhandisligi), olingan maʼlumotlarning toʻgʻrili-gini tekshirishni (fakt-cheking) va olingan natijalarni tahlil qilishni oʻrgatishlari zarur. Sunʼiy intellekt inson oʻrni-ga oʻylaydigan uskuna emas, balki uning intellektual salo-hiyatini charxlaydigan trenajyor vazifasini oʻtashi kerak.

Sunʼiy intellekt zamonaviy taʼlim tizimi uchun foyda-li quroldir. Biroq har qanday qurol kabi, uning ezgulik-ka yoki tanazzulga xizmat qilishi u kimning qoʻlida va qanday maqsadda ishlatilishiga bogʻliq. Agar biz taʼlim tizimida sunʼiy intellekt taqdim etayotgan raqamli im-koniyatlarni milliy va insoniy qadriyatlar, jonli muloqot hamda mustaqil fikrlash madaniyati bilan toʻgʻri sintez qila olsak, nafaqat yuqori bilimli mutaxassislarni, balki kelajak taraqqiyotini harakatlantiruvchi buyuk shaxslarni tarbiyalashga erishamiz.

Firdavs MUSOYEV,
OʻzDJTU talabasi

Muqaddas qadamjolar

Sulton Uvays ziyoratgohi eʼtiqod va tarix tutashgan muqaddas maskan

Amudaryoning oʻng qirgʻogʻi tomoni – Beruniy tumani hududida qad rostlagan Sul-ton Uvays bobo ziyoratgohi asrlar davomida xalq eʼtiqodi va rivoyatlarida muqaddas maskan sifatida yashab kelmoqda. U nafaqat tarixiy obida, balki minglab ziyoratchi-lar qalbiga taskin beradigan ruhiy maskan. Ziyoratgoh nomi tasavvuf tarixida mashhur boʻlgan buyuk zot – Uvays Qaraniy nomi bilan bogʻliq.

Rivoyatlarga koʻra, Sulton Uvays Qaraniy dunyoga kelgan paytda butun olamni mushk-anbar ifori tutib ketgan. Bu esa uning kelajakda ulugʻ ruhiy darajaga yetishishini anglatgan ramziy belgi sifatida talqin qilinadi.

Rivoyatlarda aytilishicha, Sulton Uvays Qaraniy yetti yoshga yetganida Olloh ishqida mast boʻlib, gʻayritabiiy karomatlar koʻrsatgan. Baʼzan ertangi kun haqida gapirib, jinn-isifat holda yurgani uchun ayrimlar uni tushunmagan. Natijada Yaman aholisi uni quvib yuborgan. Shundan soʻng u onasi bilan Xorazm tomonlarga kelib, togʻdagi gʻorlardan birida yashab, giyohlar bilan kun kechirgan va oddiy bir kishiga choʻponlik qilgan.

Munojot togʻidagi izlar

Rivoyatlarga koʻra, bir kuni Sulton Uvays bobo togʻ tepasiga chiqib, “Hu-haq” deya Olloh taolodan ummatlarning gunohlarini kechirishini soʻrab qirq bir kun munojot qil-gan. Bugun bu joy xalq orasida “Munojot togʻi” nomi bilan mashhur.

Shu munojot payti uning ikki tizzasi va oyoq panjalari toshga botib ketgan. Ziyo-ratchilarning guvohlik berishicha, bu izlar hanuzgacha togʻda saqlanib qolgan.

Ziyoratgohning bugungi qiyofasi

Asrlar davomida bu maqbara turli tabiiy ofatlar, zilzilalar va tarixiy voqealarni bosh-dan kechirgan. Biroq har safar qayta taʼmirlanib, bugungi koʻrinishiga keltirilgan. Bugun Sulton Uvays ziyoratgohi nafaqat tarixiy obida, balki ziyorat va maʼnaviy tarbiya mas-kani sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Har yili minglab odamlar bu maskanga kelib, togʻ bagʻrida sukunat topadi, duo qiladi va tarix bilan yuzma-yuz keladi. Amudaryo boʻyida qad rostlagan bu muqaddas maskan xalq eʼtiqodi, tarixiy xotira va ruhiy merosning yorqin timsoli boʻlib qolmoqda.

Intizor SAMANDAROVA,
Oʻzbekiston davlat jahon tillari
universiteti talabasi

Hikoya

Bahor tonglaridan biri edi. Aqchakoʻl boʻyida mayin shabada esar, suv yuzida Quyosh nurlari jilvalanardi. Marjona shu sokin manzara bagʻrida daftarini qoʻliga olib, yana bir bor oʻyga soldi. U bu yerga bekorga kelmagandi. “Aqcha-koʻl ilhomlari” tanlovida qatnashish uchun yozayotgan hikoyasi hali tugallanma-gan, fikrlari esa chalkash edi. Qanchalik harakat qilmasin, qalbidagi tuygʻular-ni qogʻozga tushira olmayotgandek tuyulardi. Marjona suvga tikilib, oʻz aksini koʻrdi. “Nega yozolmayapman?” deb oʻzidan soʻradi. Shu payt yoniga bir qariya kelib oʻtirdi. Sochlari oppoq, nigohlari esa chuqur va sokin edi.

– Qizim, nimani izlayapsan? – dedi u muloyim ovozda.
Marjona biroz hayron boʻlib javob berdi:
– Ilhom izlayapman. Hikoya yozishim kerak, lekin soʻzlar kelmayapti.

Aqchakoʻl boʻyidagi ilhom

Otaxon kulimsiradi:
– Ilhomni uzoqdan qidirma. U sening ichingda.
– Agar ichimda boʻlsa, nega topolmayapman?
Qariya suvga ishora qildi:
– Qara, bu koʻl doim shu yerda. Ammo shamol boʻlmasa, uning goʻzalligini sezmay-san. Ilhom ham shunday, uni uygʻotish kerak.
– Qanday qilib? – dedi Marjona sabrsizlik bilan.
Qariya biroz sukut saqladi.
– Qalbingdagi eng rost tuygʻuni yoz. Boshqalarga yoqishi uchun emas, oʻzing uchun yoz. Shu soʻzlar Marjonaning yuragiga yetib bordi. U darhol daftarini ochdi. Bu safar u oʻylamadi, reja tuzmadi, shunchaki yozdi. Bolaligi, orzulari, qoʻrquvlari, umidlari... hammasini qogʻozga tushirdi. Bir mahal boshini koʻtarsa, otaxon yoʻq edi. Goʻyo u hech qachon boʻlmagandek. Marjona esa jilmaydi.

U endi tushungandi – ilhom tashqaridan emas, ichkaridan keladi. Uning hikoyasi tanlovda yuqori baholandi. Ammo Marjona uchun eng katta yutuq – oʻz ovozin topgani edi. Mana, bir necha kunki, u oʻsha lahzani takror-takror eslaydi, yana va yana yozgisi keladi.

Marjona BOMURODOVA,
BuxDU talabasi, “Aqchakoʻl ilhomlari”
seminari ishtirokchisi

“Ko‘rinmas” qahramonlar



Har kuni shoshilamiz. Ishga, darsga, uchrashuvga, hayotning ikir-chikir tashvishlari sari. Shoshayotgan paytimizda esa ko‘p narsani ko‘rmaymiz yoki ko‘rishni istamaymiz. Chunki ko‘rish mas’uliyat demakdir. Ana shu payti jamiyatning eng og‘ir yukini ko‘tarayotganlar ko‘zimizga tashlanmay qoladi. Ular “ko‘rinmas” qahramonlar.

Tong-saharda shahar hali uyg‘onmasidan, kimdir uyg‘oq bo‘ladi. Qo‘lida supurgi, yuzida kechagi charchoq izi. Kecha u ham uyiga charchab qaytgan, balki bolasi nimadir olib berishni so‘ragan, balki sovuq uyda uxlagan. Ammo bugun tongda u yana ko‘chada. Biz esa derazadan tashqariga qarab, asfaltning tozaligini tabiiy hol deb qabul qilamiz. Tozalik ortida inson mehnati borligini o‘ylamaymiz...

Qahramonlikni balandparvoz so‘z-lardan, sahnadan, mikrofon oldidan qidiramiz. Aslida esa qahramonlik ko‘pincha sukutda bo‘ladi. U avtobus rulida o‘tiradi, har kuni yuzlab odamni manziliga yetkazadi. Ammo bir marta kechiksa, haqorat eshitadi. Bir marta xato qilsa, ijtimoiy tarmoqlarda masxara

qilinadi. Uning ham yuragi, asabi borligi, uyida muammolari ko‘pligi hech kimni qiziqtirmaydi.

Kasalxonadagi hamshirani olaylik. U tun bo‘yi tik oyoqda, bir bemor og‘riqdan ingraydi, biri jahli chiqib baqiradi, biri esa minnatdorlik o‘rniga koyiydi. U esa baribir hapdori tarqatadi, tomchidori ulaydi, yurakni tinchlantiradigan so‘z topishga harakat qiladi. Ammo oladigan maoshi mehnatiga mutanosibmi? Uning ko‘zidagi charchoqni kim o‘lchab ko‘rgan?

“Ko‘rinmas” qahramonlar, afsuski, ko‘pincha faqat ko‘rinmas emas, keraksizdek qabul qilinadi. Ularning mehnati “shunday bo‘lishi kerak” degan sovuq qarash bilan baholanadi. Ishini eplamasa, norozi bo‘lamiz, eplasa – sukut

saqlaymiz. Yo minnatdor bo‘lishni unutganmiz, yo shirin so‘z yoki rahmatimiz anqoga shafe’.

Yana bir og‘riqli haqiqat shuki, “ko‘rinmas” qahramonlar orasida orzulari sinib ketganlar ko‘p. Bir paytlar ular ham katta rejalar tuzishgan. O‘qituvchi, shifokor yoki muhandis bo‘lishni orzu qilishgan. Ammo hayot ularning qismatini boshqa yo‘lga burib yubordi. Ular shunga moslashishdi, orzularini ichga yutishdi. Chunki tirikchilik tashvishi orzuning oyoqlarini sindiradi...

Ba’zida “Nimaga odamlar buncha jahldor?” deya hayron bo‘lamiz. Balki sabab shundadir. Inson o‘zini kerakli his qilmasa, ichidan yemirila boshlaydi. Har kuni kamsitilgan, e’tiborsiz qolgan odam bir kun kelib komillikni yo‘qotib qo‘yadi. Ammo o‘sha payti biz uni tushunishga emas, hukm qilishga shoshilamiz.

Yana bir achchiq haqiqat – “ko‘rinmas” qahramonlar qariganda yanada ko‘rinmas bo‘lib qolishadi. Oladigan pensiyalari tirikchilikka yetib-yetmaydi, e’tiborni-ku, aytmasa ham bo‘ladi.

Dahshatlisi, ularni xotirlaydiganlar ham yaqinlari, xolos. Bir paytlar shaharni tozalagan qo‘llar endi titraydi. Ammo u qo‘llarga qarab “Sizning mehnatingiz tufayli biz qulay yashadik”, deydiganlar kam.

Ha, aslida jamiyatning kuchi faqat baland imoratlar-u qimmat mashinalarda emas. Jamiyatning haqiqiy kuchi uni har kuni jimgina ushlab turgan qo‘llarda. Agar ular bo‘lmasa, hayot bir zumda izdan chiqadi. Ammo biz buni doim ham anglayvermaymiz.

Balki bugun to‘xtab, atrofga yaxshiroq qararmiz? Yonimizdan o‘tayotgan farroshga, haydovchiga, qorovulga salom berarmiz? Ayonki, “Rahmat” so‘zi qimmat emas, ammo u birovning og‘ir kunini yengillashtirishi mumkin.

“Ko‘rinmas” qahramonlar haykal talab qilmaydi. Ular faqat e’tirof istaydi. Chunki insonni tirik tutadigan narsa faqat yegulik emas, balki qadrlanishdir.

Endi, aytinch-chi, biz qachon yuksalamiz? Fikrimcha, qachon eng pastda turgandek ko‘ringan insonni ham inson sifatida ko‘ra boshlasak.

Marjona BOMURODOVA,
Buxoro davlat universiteti talabasi

Sizlarga hozir hikoya qilmoqchi bo‘lgan voqeam – hayotiy haqiqat.

Odatiy kunlarning birida kursdosh dugonam bilan suhbatlashib qoldik. Shunda mavzuga mos fikr aytdim:

– Men baribir ayol kishini mehrga muhtoj va nisbatan zaifroq deb bilaman.

– Ha. Shunday. Aniqrog‘i, o‘n sakkiz yoshimgacha men ham ayol ojiza, unga suyanish uchun yelka kerak deb o‘ylardim, – dedi dugonam. – Lekin boshimga tushgan hodisalar ko‘zimni ochdi. Bilasan, biz oilada uch nafar qizimiz. Boquvchimiz yo‘q.

bo‘lganiniyam aytmaydi. Bir necha bor onamdan yashirinchasingillarim bilan dadamga qo‘ng‘iroq qildik. U kishi hol-ahvol so‘radi, undan u yog‘iga o‘tmadi ham. Qachon kela-siz desak, borib qolarman, chet elga ishlagani ketyapman, dedi. Ichim alam-g‘azabga to‘la vaqtlar bo‘ldi. Gohida chiqib onamga baqir-gim, aqlimni kemirayotgan savollarga javob olgim kelardi. O‘zimni bosdim. Hozir o‘ylasam to‘g‘ri qilgan ekanman... Seningam vaqtingni oldima.

– Yo‘q, bemaolol, – javob qildim shoshib.

– Xullas, o‘tgan yili kontraktimning ik-

Onamdek mard ayolni ko‘rmadim

Yalt etib unga qaradim. Buni bilmasdim. Chunki u hech qachon buni sezdimagan. Qaydam, qanday sezdirishi mumkin? Kap-katta bo‘lsak, bu mavzularda gaplashmasak.

U gapida davom etdi:

– Dadam bizni tashlab ketganiga endigina ikki yil bo‘ldi. O‘shanda o‘n yetti yoshga to‘lgandim. Ba’zan nega chaqaloqligimizda, yo aqlimizni tanib ulgurmagani paytimizda tashlab ketmagan, deb o‘ylab qolaman. Shunda yaxshi bo‘lardim, hozirgidek ruhan qiynalmas edik. Boshida hammasi bir maromda ketdi. Keyin moliyaviy qiyinchiliklar boshlandi. Men universitetga kirdim. Singillarim maktabda o‘qiydi. Oilamizning yagona boquvchisi – onam. Ertalabdan kechgacha ishlaydi. Uy ishlari, pishir-tushur mening bo‘ynimda. Bir tomonda kontrakt masalasi...

Men ham ishga kirishga ahd qildim. Darsdan keyin kafeda yoki do‘konda ishlayman, dedim. Ammo onam qat’iy rad etdi. “Sening hozirgi ishing – o‘qish, tamom” dedi. Dadam bizga pul jo‘natmasdi. Uning qayerdaligini hatto bilmasdik. Onamga hech qachon ortiqcha savol bermaganmiz. Bersak ham foydasiz, javobi yo‘q. Hatto dadam bizni nega tashlab ketganini, oralarida qanday kelishmovchilik

kinchi qismini to‘layotganda juda qiynaldik. Ro‘zg‘or, singillarimning maktab xarajatlari. Onam uxlamay chiqardi. “Nima bo‘lsayam to‘layman, qizim, o‘ylama” deb kayfiyatimni ko‘tarardi. Uning qiynalayotganiga chidab turolmadim, berkinib dadamga telefon qildim. Yordam berishini so‘radim. “Qizim, shu kunlarda ishlarim yaxshi emas”. Shu gap yetarli edi, lekin orqasidan “bo‘ldi, endi o‘zlaringni eplab ketsalaring bo‘ladi, katta bo‘lib qoldinglar” dedi. Bu safar hatto ahvolimizni, singillarimni ham so‘ramadi. Hayron qoldim. Men o‘n yetti yil qahramonim dadam ekanligiga ishonib yashadim. Mening hayotimdagi eng yaxshi erkak otam bo‘lib qolsa kerak deb xayol qilardim. Hafsalam pir bo‘ldi. Qo‘ng‘iroq qilganimga ming pushaymon yedim. Onam kontraktimni ta’lim krediti olib to‘ladi.

Bilasanmi, men onamdek mard ayolni hech ko‘rmaganman...

Bu hikoya anchagacha meni o‘ylantirdi va yozishni istadim. Atrofimizda bunga o‘xshash taqdirlar ko‘p. Har biri insonni xulosa chiqarishga undaydi.

Barnoxon RAJABOVA,
ToshDO‘TAU magistranti

Mulohaza

So‘z ortidagi samimiyat



Har bir xalqning o‘ziga xos qadriyat, milliy urf-odatlar va muloqot madaniyati mavjud. Aynan shu mezonlar orqali xalqning kimligi, ma’naviy qiyofasi va madaniy darajasi namoyon bo‘ladi.

Xususan, insonlarning o‘zaro muloqotida “siz” va “sen” murojaat shakllarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Aslida, bu ikki so‘z ma’no jihatidan yaqin bo‘lsa-da, ularning qo‘llanishi insonning suhbatdoshiga bo‘lgan munosabati, hurmat darajasini ifodalaydi. O‘zbek xalqida, odatda, kattalarga va begona insonlarga “siz” deb murojaat qilish odob belgisi hisoblanadi. Bu oddiy so‘z suhbatdosh qalbiga iliqlik bag‘ishlab, o‘zaro hurmatni mustahkamlaydi.

Qishlog‘imizda yashagan urush faxriysi bilan uchrashuvga bor-gandik. Otaxon boshidan kechirgan og‘ir yillarni eslar ekan, bizga mehr bilan “siz, bolalar” deb murojaat qilardi. Bu muomala ortida katta tarbiya, hurmat va insoniylik mujassam edi.

Xalqimizda “Bug‘doy noning bo‘lmasin, bug‘doy so‘zing bo‘lsin”, “Yaxshi gapga ilon inidan chiqar, yomon gapga pichoq qinidan” kabi hikmatli so‘zlar bejiz aytilmagan. Darhaqiqat, inson xushmuomalalik orqali jamiyatda obro‘ qozonadi.

Biroq “sen” so‘zidan butunlay voz kechish ham to‘g‘ri emas. Bu murojaat shakli yaqinlik, samimiyat va ishonch ifodasidir. Masalan, bolalikdan birga ulg‘aygan do‘stlarning bir-biriga “siz” deb murojaat qilishi tabiiy emas. Aksincha, “sen” ularning o‘zaro yaqinligini ifodalaydi. Ba’zi g‘arb davlatlarida esa odamlar tanishgan zahoti “sen”lab gaplashishi odatiy hol. Hatto farzandlar ota-onasiga shunday murojaat qilishadi. Bu holat biz uchun noodatiy tuyulsa-da, har bir xalqning o‘ziga xos turmush tarzi bor.

Said Ahmadning “Ufq” romanida ham bu masalaga e’tibor qaratilgan. Asarda qahramonlardan birining ota-onasiga “sen” deb murojaat qilishi uning tarbiyasidagi kamchilik sifatida tasvirlanadi. Bu orqali yozuvchi yoshlarni odob-axloqqa da’vat etadi.

Inson avvalo o‘zini hurmat qilishni o‘rganishi kerak. Shundagina u boshqalarga ham hurmat bilan munosabatda bo‘ladi. “Siz” va “sen” so‘zlarini o‘z o‘rnida qo‘llay bilish esa nutq madaniyatining muhim belgisi sanaladi.

To‘maris SAGINDIKOVA,
O‘zMU talabasi



Musirmanov Dilshod Yesirgapovichning 06.01.05 – Seleksiya va urugʻchilik ixtisosligi boʻyicha “Bugʻdoyning sariq zang (*Puccinia striiformis f. sp.*) kasalligi-ga va issiqlikka chidamli, don sifati yuqori boʻlgan navlarini yaratish” mavzusidagi (qishloq xoʻjaligi fanlari boʻyicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining(himoya-siz seleksiya yutugʻi(ixtiro patenti) asosidagi taqdimoti) himoyasi Toshkent dav-lat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12. Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet koʻchasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Aripova Shaxnoza Raxmanovnaning 06.01.05 – Seleksiya va urugʻchilik ixtisosli-gi boʻyicha “Oʻzbekiston tuproq-iqlim sharoitida yetishtirishga mos qovoqcha (*Cucur-bita pepo L. var. giraumons Duch.*)ning hosildor, ixcham palakli navlarini yaratish” mavzusidagi(qishloq xoʻjaligi fanlari boʻyicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining (himoyasiz seleksiya yutugʻi(ixtiro patenti) asosidagi taqdimoti) himoyasi Toshkent dav-lat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-iyun kuni soat 15:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100140, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet koʻchasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Nurova Zamira Annakulovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixti-sosligi boʻyicha “Immun tizimi koʻrsatkichlari buzilishida kaliforniya chuvalchangidan ajratib olingan zardobning samaradorligini baholash” mavzusidagi(biologiya fanlari boʻyicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Oʻzbekiston Respublikasi Fan-lar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-iyun kuni soat 11:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo Gʻulomov koʻchasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Ayubov Mirzakamol Sobitjonovichning 03.00.14 – Genomika, proteomika va bio-informatika ixtisosligi boʻyicha “Oʻzbekistonda tarqalgan SARS-CoV-2 shtamm-larining toʻliq genomlarini sekvenslash, ishonchli mutatsiyalarni aniqlash va vaksi-na uchun platforma yaratish” mavzusidagi(biologiya fanlari boʻyicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Genetika va oʻsimliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.B.24.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqoriyuz koʻchasi, 266-uy.
Tel/faks: (71) 264-22-23, 264-23-90; e-mail: igebr@academy.uz

Gafforova Madixa Ixtiyor qizining 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi boʻyicha “Taʼlim subyektlarining oilaviy va shaxsiy salohiyati maktab sha-roitida bulling profilaktikasi sifatida” mavzusidagi(psixologiya fanlari boʻyicha) falsa-fa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Oʻzbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.10.04.R.01.18 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-iyun kuni soat 11:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet koʻchasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-67-72; e-mail: nauka@nuuz.uz

Turakulova Shaxzodaxon Shuxratxon qizining 14.00.01 – Akusherlik va gine-kologiya ixtisosligi boʻyicha “Bepushtligi boʻlgan ayollarda endometrioizning kichik shakllarini tashxislash va davolash usullarini optimallashtirish” mavzusidagi(tib-biyot fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-iyun kuni soat 13:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bogʻishamol koʻchasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: mail@tashpmi.uz

Xolmatov Faxridin Taxirovichning 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi boʻyicha “Kombinatsiyalashgan quyosh fo-toelektrik modulli avtonom havo sovitish tizimini ishlab chiqish” mavzusidagi(texnika fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texni-ka universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.28.11.T.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-iyun kuni soat 15:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik koʻchasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Tilavov Tolibjon Baxtiyor oʻgʻlining 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi boʻyicha “Tajribada surunkali buyrak yetishmovchiligida moyaklardagi morfologik oʻzgarish-lar, ularni sumbul ildizi bilan korreksiyalash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-iyun kuni soat 12:30 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, Gʻijduvon koʻchasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Ilmuratova Munisa Abdukayum qizining 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi boʻyicha “Bolalarda nodifferensial biriktiruvchi toʻqima displaziyasi fonida kechayotgan bron-xial astmaga atipik qoʻzgʻatuvchilarning taʼsiri” mavzusidagi(tibbiyot fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.01.05 raqamli ilmiy ken-gashning 2026-yil 25-iyun kuni soat 11:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bogʻishamol koʻchasi, 223-uy.
Tel/faks (78) 150-78-28; e-mail: info@tashmeduni.uz

Rasulov Maratbek Baydullayevichning 06.01.05 – Seleksiya va urugʻchilik ixti-sosligi boʻyicha “Soyaning (*Glycine max. L*) jahon genofondi asosida ertapishar va hosildor yangi navini yaratish” mavzusidagi(qishloq xoʻjaligi fanlari boʻyicha) falsa-fa doktori(PhD) dissertatsiyasining (himoyasiz seleksiya yutugʻi(ixtiro patenti) asosida taqdimoti) himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruv-chi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-iyun kuni soat 13:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet koʻchasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Saparov Azamat Berdivayevichning 05.09.06 – Gidrotexnika va melioratsiya quri-lishi ixtisosligi boʻyicha “Parrakli nasosning oquvchi qismidagi kavitatsiya yemirilishini kamaytirish” mavzusidagi(texnika fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi-ning himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashining 2026-yil 3-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Mirzo Ulugʻbek tumani,
Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.
Tel/faks: (99) 434-43-28; ismiti@minwater.uz

Ikromov Otabek Erkinjon oʻgʻlining 05.09.06 – Gidrotexnika va melioratsiya qurili-shi ixtisosligi boʻyicha “Suv ombori gruntli toʻgʻonida filtratsiya va deformatsiya jarayoni monitoringi(Tollimarjon suv ombori misolida)” mavzusidagi(texnika fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 3-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Mirzo Ulugʻbek tumani,
Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.
Tel/faks: (99) 434-43-28; ismiti@minwater.uz

Rajabov Tolib Toshtemir oʻgʻlining 03.00.12 – Biotexnologiya ixtisosligi boʻyicha “Oʻsimliklar oʻsishini jadallashtiruvchi va suv resurslarini tejovchi biogidrogel yaratish” mavzusidagi(biologiya fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsi-yasining himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.V.08.09 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-iyun kuni soat 11:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol koʻchasi, 11-uy.
Tel/faks: (65) 212-29-12, 212-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Mansurova Nodiraxon Shokirjonovnaning 05.10.03 – Seysmik xavfsizlik ixtiso-sligi boʻyicha “Seysmik taʼsirlar ostidagi yer osti quvurlarining reaksiyasini baho-lash” mavzusidagi(texnika fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura qurilish universiteti tasarrufidagi Seysmik xavfsiz-lik va barqaror qurilish milliy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/31.10.2025.T.11.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-iyun kuni soat 15:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
Qadrdon MFY, Yangi shahar koʻchasi, 9-uy.
Tel/faks: (91) 351-50-45; e-mail: devon@taqu.edu.uz

Sharipov Abror Anvar oʻgʻlining 13.00.05 – Kasb-hunar taʼlimi nazariyasi va meto-dikasi ixtisosligi boʻyicha “Kasbiy taʼlim tashkilotlari oʻquvchilarini zamonaviy peda-gogik texnologiyalar vositasida amaliyotga yoʻnaltirish metodikasini takomillashti-rish” mavzusidagi pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi-ning himoyasi Kasbiy taʼlimni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruv-chi DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-iyun kuni soat 9:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.


Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Sirojiddinov Ilhomjon Ibroximovichning 13.00.05 – Kasb-hunar taʼlimi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi boʻyicha “Preventiv faoliyat asosida kasbiy taʼlim tashkilotlari oʻquv-chilarining kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirish metodikasi” mavzusidagi(peda-gogika fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Kasbiy taʼlimni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12. Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-iyun kuni soat 11:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Axmadjon Abdumaʼruf Isoq oʻgʻlining 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi boʻyicha “Bolalardagi vertebrogen ogʻriq sindromlarining klinik-epidemiologik ahamiyati va ney-rofizilogik xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-iyun kuni soat 12:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur koʻchasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprrektori@sammi.uz



Tarixga nazar

TUPROQ OSTIDAGI SHAHAR

Samarqandning Paxtachi tumani. Yo'l-yo'lakay keng dalalar, shamolda egilgan bug'doy boshoqlari va uzoqdan ko'rinayotgan tepaliklar oddiy manzaradek tuyuladi. Ammo Ziyovuddin qishlog'i yaqiniga kelgach, bu tepaliklar ortida mingyillik tarix yashirilib yotganini anglaysiz. Bu – qadimiy Dabusiya.

Dabusqal'a tarixiy manbalarda turlicha – Dabusiy, Dabus, Dahbus nomlari bilan tilga olingan. O'rta asr tarixchisi Narshaxiy qal'a yoshini Buxorodan ham qadimiyroq deb takidlagan. X asrda yashab ijod qilgan geograf olim Abdulfaraj Basriy shaharga Iskandar Makedonskiy asos solgan deb yozadi. "Dabus" so'zi arab tilida temir gurzi yoki to'qmoq ma'nosini anglatadi. Tadqiqotchilar qal'a o'z davrida metindek mustahkam qurilgani uchun shunday nom olgan, deyishadi.

VI asrda Dabusiya Miyonqoldagi mustaqil feodal hukumatning poytaxti bo'lib, uning hukmdori "Dabushshoh" deb atalgan. Arablar istilosiga qadar esa u Fay(Pay) saltanatining poytaxti bo'lgan. Al-Muqaddasiy, Yoqut Hamaviy, Ibn Havqal, Ibn Xurdobeh, Abu Rayhon Beruniy singari o'rta asr allomalari ham o'z asarlarida Dabusiya ulkan bozor, masjid va madrasalar, oltin, kumush hamda mis tangalar zarb etiladigan zarbxonalarga boy gavjum hayot markazi bo'lganini qayd etishgan. XI asrda zarb etilgan dirhamda ham shahar "Qutlug' O'rda ad-Dobusiya" – ya'ni "Baxtli Dabusiya" aks etgan.

IX asrda yashab o'tgan arab tarixchisi Al-Ya'qubiy Dabusiyani "dushman tig'i o'tmaydigan, mustahkam va mashhur shahar" deb ta'riflagan. Buyuk tarixchi Abu Ja'far at-Tabariy esa bu yerni 10 ming nafar sarboz qo'riqlagan, deb yozadi.

Dabusiya yirik mustahkam harbiy qal'a bo'lib, Buxoro arablar tomonidan qamal qilinganda Buxoro hukmdori yordam so'rab Dabusiya elchi yuboradi.



Dabusiyaliklar kechiktirmay Buxoroga yo'l oladi va buxorolik mudofaachilar bilan birlashib, dushmani Amudaryoning narigi qirg'og'iga siqib chiqaradi.

Arab lashkarboshisi Qutayba ibn Muslim keyinroq avval Dabusiyani bo'ysundirmasa, Buxoroni ham, Samarqandni ham ololmasligini tushunadi. Bir necha kun davom etgan qaqshatqich to'qnashuvlardan so'ng u qal'a devorlarining mustahkamligi va himoyachilarining mahoratiga tan beradi. Keyinchalik qal'a Qoraxoniylar va G'aznaviylar o'rtasidagi tarixiy janglar maydoniga aylanadi.

Qal'aning ba'zi joylarida qadimiy devorlarning o'rni hanzu saqlanib qolganini ko'rish mumkin.

Tadqiqotlarga ko'ra, Dabusiya qal'asi keng hududni qamrab olgan: rabod(tashqi shahar) qariyb 70 gektarni, shahriston(ichki shahar)ning o'zi esa 22-23 gektarni tashkil etgan. Ark (qal'aning markaziy qismi) esa 1 gektardan ortiq maydonni egallagan. Zarafshon daryosining chap sohilida joylashgan qal'aning shimoliy devorlari esa bir paytlar daryo to'liqlarini to'sib turgan. Arxeologlar bu hududdan sopol buyum, tanga va qadimiy inshoot qoldiqlarini topgan.

Qal'a hududidan sal narida qadimiy qabrston

joylashgan bo'lib, mahalliy aholi bu yerni muqaddas maskan deb biladi.

Qabrston yaqinidagi kichik buloq esa doimo odamlar bilan gavjum. Bu buloqning suvi tiniq va muzdek. Ziyoratchilar suvni shifobaxsh deb kimdir yuzini yuvadi, yana kimdir idishga solib olib ketadi. Lekin bu qarashlarning ilmiy isboti haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Biroq xalq orasida buloq suvi teri kasalliklari va charchoqqa foyda degan tushuncha bor.

Dabusiya borish uchun Samarqanddan Paxtachi tomon qatnaydigan avtobus va yo'nalishli taksilar orqali arzon narxlarida Ziyovuddin qishlog'iga yetib olish mumkin. Shaxsiy avtomobilda keluvchilar esa Samarqand-Buxoro avtomobil yo'li orqali qal'a tomon burilishadi.

Bugun Dabusiya jimjit. Bu yerda na savdogarlar shovqini, na qadimiy bozorlardagi gavjumlik va na Dabushshohning farmonlari yangraydigan keng saroylar bor. Ammo shamol urib turgan xarobalar orasida yurganingizda, tarix hamon shu kengliklar aro yashayotganini his qilasiz. Tuproq bag'rida tangalar, sopol siniqlari, va ehtimol, hali kashf etilmagan ko'plab sir-sir-uxlab yotgandir.

Sug'diyona MUSULMONOVA,
O'zJOKU talabasi



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6137. Tiraji 6440.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat"dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va mual-
lfiga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.